

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO‘JALIK INSTITUTI

Veterinariya, zootexniya va qorako‘lchilik fakulteti

5621200 – Qorako‘lchilik ta’lim yo‘nalishi

**Hikmatov Murodjon Erkinovichning
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: Tirik og‘irligi har xil bo‘lgan qo‘zilarning teri
sifatini o‘rganish**

Ilmiy rahbar ,q.x.f.nomzodi dotsent

Sattorov S.B.

**Veterinariya,zootexniya va
qorako‘lchilik fakulteti
dekani,dotsent_____**

N.O.Farmonov

«_____»_____2014

**Yaylov chorvachiligi va hayvonlarni
oziqlantirish kafedrasi mudiri,
dotsent_____B.S.Yahyaev**

«_____»_____2014

№_____sonli yig‘ilish bayoni

S A M A R Q A N D – 2 0 1 4

MUNDARIJA

Kirish.....	2
I.Tanlangan mavzuga taaluqli adabiyotlar tahlili.....	7
II. Xo‘jalik tarihi.....	15
III. Tanlangan mavzu buyicha muammolarning qo‘yilishi.....	28
IV. Tanlangan mavzuning echimi va yoritilishi.....	30
4.1. Jun tolasi uzunligi	30
4.2.Konstitutsiya tipi.....	31
4.3. Jun qoplami yaltiroqligi.....	33
4.4. Jun qoplami ipaksimonligi.....	34
4.5. Sur rangining ifodalanishi.	35
4.6 Sur rangining o‘tish keskinligi – kontrastligi	37
4.7. Sur rangining tekis tarqalishi	38
4.8. Barra tipi	40
4.9. Qo‘zilar sinfi	41
V. Tajribaning iqtisodiy samaradorligi.....	43
VI.Ekologik muammolar,hayot faoliyati xafsizligi masalalari.....	45
VII.Xulosalar	53
VIII.Ishlab chiqarishga berilgan tavsiyalar.....	54
IX.Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	55
Ilovalar.....	61

K I R I S H

Respublikamiz qorako'lichiligi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, cho'l va yarim cho'l yaylovlarining og'ir sharoitida yaratilgan bu qo'ylar o'zining mustahkam konstitutsiyasi, ekstremal cho'l sharoitiga yuqori darajada moslasha olishi va bu xil sharoitda sifatli mahsulot berishi hamda iqtisodiy jihatdan samaradorligi bilan boshqa turdagi hayvonlardan ustun turishi bilan farqlanadi.

O'zbekistonda chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha bosqichma – bosqich choralar amalga oshirilib kelmoqda. Amalga oshirilayotgan islohatlar chorvachilikda, shu jumladan qorako'lichilikda bozor munosabatlariga asoslangan yangi tizimini ishlab chiqish imkonini berdi.

Qorako'lichilik chorvachilikning eng muhim va o'ziga xos sohaslaridan biri bo'lib, uning rivojlanish xududi respublikaning 18,0 mln. gektar maydonini egallagan cho'l va tog' oldi yarmi cho'l yaylovlari hisoblanadi. Klimatik jihatdan ekstremal sharoiti yaylov hosildorligining o'ta pastligi suv manbalarining tanqisligi bilan xarakterlanadigan cho'l regioniga moslashgan qorako'l qo'ylari dunyo bozorida yuqori talabga ega bo'lgan turli rang rang-baranglik va assortimentdagi qorako'l terilari go'sht, jun, sut mahsulotlarini etishtirish bilan bir qatorda xududda yashovchi 3 mln.ga yaqin aholining hayot kechirish manbai xisoblanadi.

Chorvachilik sohasida qabul qilingan dasturiy hujjatlar, shu jumladan "Naslchilik to'g'risida" gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martdagi 308- sonli, 2008 yil 21 apreldagi 842-sonli va Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari chorvachilikni rivojlantirishga o'zining kuchli ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

SHu bilan bir qatorda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha Respublikada ishlab chiqilgan 2011-2015 yillarga mo'ljallangan xukumat dasturi qabul qilinib, uning bajarilishida yaylov chorvachiligining alohida o'rni borligi belgilab o'tilgan.

Hozirgi kunda qorako'lichilik Respublika xalq xo'jaligida muhim o'rin egallaydigan sohalardan hisoblanib, cho'l yaylovlaridagi barcha kategoriyadagi xo'jaliklarda (shirkat, dehqon, fermer) 4,5 mln. bosh shu jumladan

“O‘zbekqorako‘li” kompaniyasi tizimidagi xo‘jaliklarda 2,5 mln. bosh qorako‘l qo‘ylari urchitiladi. Qorako‘l zotining nasl zahirasi juda boi. Uning tarkibida 10 ga yaqin rang 30 dan ziyod rang-barangliklar, 4 gul, 4 konstitutsiya tiplariga mansub qo‘ylar mavjud. Ushbu zot bilan uzoq yillar davomida olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish tizimi, turli rang, rang-baranglik va gul tipidagi qorako‘l qo‘ylarining 31 yangi zavod tiplari yaratilib, patentlar bilan himoyalangan, yaylovlarni yaxshilash texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Respublika miqyosida hozirda 29 naslchilik zavodlari va xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatmoqda va zot miqyosida 31 yuqori irsiyatli zavod tiplari mavjud. Barcha zavod tiplari qorako‘lchilik institutining ilmiy xodimlari va amaliyotchilar ijobiy hamkorligining mahsuli hisoblanib, ularning irsiyati qora, ko‘k, Buxoro, Qoraqalpoq, Surxondaryo surlari oq, guligaz ranglaridagi, turli gul tipli (qalamgul, yassi, qovurg‘asimon) yuqori sifatli qorako‘l terilari ishlab chiqarish bo‘yicha seleksiyalanib, mustahkamlangan.

Oxirgi yillarda bozor konyunkturasining qovurg‘asimon va yassi guruhlaridagi qorako‘l mahsulotiga tomon o‘zgarishi sohada seleksiya naslchilik ishlarining yo‘nalishini o‘zgartirishni, ya‘ni qayd etilgan tiplardagi qo‘ylar seleksiyasiga e‘tiborni kuchaytirishni talab etdi. Bunga javobon institut olimlari va amaliyotchilar respublikaning G‘. G‘ulom nomli va “Konimex”, “Qizilqum”, Abay nomli, “Saribel” va Amir Temur nomli naslchilik zavodlarida sur qo‘ylarining, “To‘rtko‘l”, “O‘zbekiston”, “Saribel” va “Buxoroisharif” naslchilik zavodlarida mutaxassislar bilan hamkorlikda qora rangli qovurg‘asimon tipli qorako‘l qo‘ylarining “Avazcho‘l” va “Saribel” tiplarini yaratdilar va ushbu tiplar 2005-2009 yillar oralig‘ida Davlat patentlari (ZAP 00011, 00012, 00013, 00014, 00015, 00016) bilan himoyalandi.

Sohani respublikada rivojlantirishda birdan-bir muammo-bu qorako‘lchilikda kuzatiladigan ozuqa tanqisligidir. SHu o‘rinda inqirozga uchragan yaylovlarni yaxshilash, suv manbalari tashkil etish ishlarini amalga oshirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, istiqbolda respublikada qorako'lchilikni rivojlantirish bo'yicha vazifalarni echish maqsadida Respublika Prezidenti va hukumati soxaga alohida e'tibor qaratib kelmoqdalar.

SHunga javoban chorvadorlarining cho'l regionining og'ir ekstremal sharoitiga, ozuqa tanqisligig'a, yaylovlar hosildorligining o'ta pastligiga qaramasdan tinimsiz mehnat qilishi evaziga respublika miqyosida oxirgi yillarda mol bosh sonining ma'lum darajada o'sishi ta'minlandi. Sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omillardan biri-bu mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish hisoblanadi.

Aytish o'rinliki, respublika Prezidenti va hukumatining e'tibori natijasida soha yildan-yilga rivojlanib bormoqda va uning xalq xo'jaligida tutgan o'rni mustahkamlanmoqda.

Kelgusida sohani yanada rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda:

1. Ilg'or seleksion texnologiyalar va tadqiqot natijalarini qo'llash asosida bozor talabidagi qorako'l mahsuloti beruvchi qo'ylarning massivini kengaytirish.

2. Qorako'lchilik regionida cho'l yaylovlaridan unumli foydalanish va ularning mahsuldorligini oshirish usullarini ishlab chiqish. YAylovlardan barcha mavsumlarda foydalanish maqsadida ularning o'simlik qoplamini buta (saksovul) va yarim buta (izen, chogon, quyrovuq va boshqalar) turlar bilan boyitish.

3. Qorako'lchilikning ozuqa bazasini regionda mavjud bo'lgan suv manbalaridan foydalanish asosida mustahkamlash.

4. Qorako'lchilik fani yutuqlarini targ'ib qilish va ilg'or texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish.

Ushbu vazifalarni bajarish yo'nalishida maqsadli ish olib borish, o'ylaymizki, respublikaning cho'l regionida qorako'lchilikni yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Evolyusiya jarayonida cho'l-yaylov hayvoni sifatida shakllangan qorako'l qo'ylari ushbu regionda urchitiladigan va uning sharoitiga yuqori darajada

moslashgan zot hisoblanadi. Ko'p yillar davomida uni mahsuldorlik va irsiy jihatdan takomillashtirish yo'nalishida keng qamrovli xo'jalik-tashkiliy, seleksion-naslchilik va ilmiy-innovatsion ishlar amalga oshirildi.

Qorako'l qo'ylarining genetik fondini seleksion-genetik boshqarish asosida zot ichida 30 ichki zot va zavod tiplari yaratildi. Ularning 9 tasi qora, 5 tasi ko'k, 12 tasi sur, 2 tasi oq, 1 tasi guligaz va 1 tasi zarmallarang qorako'l qo'ylarining zot va zavod tiplaridir.

Hozirgi kunda qorako'l zoti salohiyati 15 rang va 30 rangbarangliklarni o'z ichiga oladi. Qayd etilgan rang va gul tiplaridan tashqari zot strukturasida barra teri, 4 konstitutsiya, 3 ekologik va 3 etologik tiplarga mansub qo'ylar mavjud.

Ta'kidlash lozimki, qorako'l zotida mavjud zavod tiplarining aksariyat qismi yarim doira qalamgul tipiga mansub, chunki bu tip zotning asosiy tipi hisoblanib, ko'p yillar davomida seleksiya-naslchilik ishlari shunday qo'ylarni seleksiyalashga yo'naltirilgan. Oxirgi yillarda bozor kon'yunkturasining o'zgarishi va qovurg'asimon hamda yassi guruhlardagi qorako'l mahsulotiga talabning o'zgarishi seleksiya ishlarini ushbu yo'nalishga qaratishni toqazo etdi. Natijada keyingi 10 yil ichida qorako'l qo'ylarining qovurg'asimon tipli 2, yassi tipli 2 zavod tiplari yaratilib, zot genofondi yanada boyitildi.

Hozirgi kunda qorako'l qo'ylari strukturasida o'ziga xos gul va morfo-ekologik xususiyatlariga ega bo'lgan, ekologik sharoit ta'siriga turlicha reaksiya qiladigan populyasiyalar mavjud. Ma'lumotlar ko'rsatadiki, sharoiti turlicha regionlar soniga bog'liq holda turli ekologik hududlarda qo'ylarning 96 yirik populyasiyalari mavjud. Ularning 47 tasi qora rangli, 19 tasi ko'k rangli, 25 tasi sur rangli qorako'l qo'ylarining yirik populyasiyalaridir. Bundan tashqari qorako'lchilik regionida oq qo'ylarning 2, 1 tadan guligaz, zarmalla va qambar qo'ylarning populyasiyalari urchitiladi.

Oxirgi yillarda seleksiya ishlaridan tashqari belgilarning o'zgaruvchanlik, irsiylanish, o'zaro bog'liqlik va takrorlanish parametrlarini aniqlash orqali qo'ylarning genofondini takomillashtirish va qorako'l

mahsulotining sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratgan xolda tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Qorako'l qo'y zotining strukturasini boyitishga qaratib ishlab chiqilgan va qabul qilingan "Qorako'l zotini 2015 yilgacha sifatli takomillashtirishning seleksion-genetik dasturi" ga asosan mavjud genofondan foydalanish asosida qovurg'asimon (3), yassi (2), yarim doira qalamgul (2) tipidagi qora (3), sur (3), ko'k (1) rangli qorako'l qo'ylarining yana 7, shu jumladan qumli cho'l zonasida 6, adir zonasida 1 yuqori mahsuldor zavod tiplarini yaratish rejalashtirilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, seleksiya jarayonida samarali usullarni qo'llash yangi rang, rangbaranglik, gul tiplari, serpushtlikka, yuqori hayotchanlik va moslashish xususiyatlariga ega bo'lgan qorako'l qo'ylarining yuqori mahsuldor zot va zavod tiplari yaratildiki ular zotning bozor talabidagi qorako'l mahsuloti etishtiruvchi genofond tarkibini sezilarli boyitish imkonini berdi.

Qo'zilarining tirik og'irligi – bu asosiy mahsuldorlik ko'rsatkichlarining biri bo'lib qo'zi qancha katta va og'ir tug'ilsa, u shuncha tashqi muhit ta'siriga chidamli bo'ladi, tez o'sadi va kasal bo'lmaydi.

Qo'zilarining tirik og'irligi bir qancha sabablarga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin. Bular jumlasiga qo'ylarning zoti, yoshi, jinsi, konstitutsiyasi, urchitish hududi, qo'zining ona qornida rivojlanishi, soni, sovliqning anatomik fiziologik holati va boshqa omillar kiradi. SHuning uchun men ushbu bitiruv malakaviy ishimda tirik og'irligi har xil bo'lgan sur qo'zilarining sifat ko'rsatkichlarini o'rganishni maqsad qildim.

I. Tanlangan mavzuga taaluqli ilmiy adabiyotlar tahlili

Qo'ylarning tirik vazni katta xo'jalik va biologik ahamiyatiga ega. Gavdasi yirik hayvonlar o'z tanasida ko'proq tuyimli moddalar yig'ishga qodir va odatda shu xisobidan boshqalarga nisbatan hayotchanlini yaxshiligi bilan farqlanadi.

Qo'zilarining tirik og'irligi – bu asosiy mahsuldorlik ko'rsatkichlarining biridir, ya'ni qo'zi qancha katta va og'ir tug'ilsa, u shuncha tashqi muhit ta'siriga chidamli bo'ladi, tez o'sadi va kasal bo'lmaydi. Qo'zilarining tirik og'irligi bir qancha sabablarga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin. Bular jumlasiga qo'ylarning zoti, yoshi, jinsi, konstitutsiyasi, urchitish tumani, qo'zining ona qornida rivojlanishi, soni, sovliqning anatomik fiziologik holati va boshqa omillar kiradi va ushbu omillar to'g'risida olimlarimiz quyidagi fikrlarni aytib o'tganlar.

Bir qator mualliflarning kuzatishlaridan ma'lum bo'lishicha, mazkur tip yoki zotdagi hayvonlarning tez etiluvchanligini ko'rsatib beruvchi, umum qabul qilingan va keng ko'llanilayotgan, ko'rsatkich bu tug'ilgandagi tirik vazndir.

Homilaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi barcha omillar, uning vazniga ham ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun, mazkur ko'rsatkich homila davridagi sharoitning organizmga ta'sir etishi juda muhim bo'lib hizmat qilishi mumkin.

Qorako'lchilikda bu masala juda muhim o'rin egallaydi, chunki qo'zilarining turli xil tirik vazni turli tuman qorako'l terilarni shakllantiradi.

S. YU. YUsupovning (2010) ta'kidlashicha, hayvon tirik vaznining oshishi bilan uning tanasida ko'proq zahiralar yig'ilib, ular och qolganda yoki ozuqa tanqisligida sarflanadi. Bir zot yoki suruv ichida gavdasi yirik bo'lgan hayvonlar mustahkam konstitutsiyasi va salomatligi bilan ajralib turadi.

A. Gaziev (2007) ma'lumotlariga ko'ra mayda gulli tirik vazni kichik bo'lgan sovliqlardan tug'ilganda tirik vazni kichik qo'zilar, katta gulli sovliqlardan esa aksincha yirik qo'zilar olinadi.

M. J. Zokirov va S. YU. YUsupovning (1992) ma'lumotlariga ko'ra mayda gulli qo'zilarining tirik vazni kichik, katta gulli qo'zilariniki esa yirik bo'ladi.

A.Gazievning (2008) aniqlashicha, qo'zilar tirik vaznining oshishi bilan mayda gulli va o'rta gulli qo'zilar sonining kamayishi quzatiladi. Qo'zilar tirik

vaznining o'zgarishi hayvonlarning qorako'l teri va qo'zilar sinfining o'zgarishiga olib keladi.

S.YU. YUsupov (2010) ta'kidlashicha, yirik qo'zilar terisi og'ir, qalin va jun tolalari uzun, mayda qo'zilar terisi kichik va jun-tolalari o'rtacha bo'ladi.

Qora rangli qo'zilar tug'ilgandagi tirik vaznining sur qo'zilarga nisbatan og'ir bo'lishini S. R. Bozorov (2004), S B Sattorovlar (2010) ta'kidlab o'tishgan.

T. Umurzoqovning (1989) fikriga ko'ra, tirik vazn barcha gul tiplari bilan u yoki bu jihatdan bog'liqlikka ega, ammo alohida qo'chqorlar avlodida bu bog'liqlik juda o'zgaruvchan. Tug'ilgandagi tirik vazn va teri sathi, teri qalinligi, gul uzunligini qalinligi jun tola uzunligi, yaltiroqlik, ipaksimonlik pigmentatsiya bilan ijobiy, gullarning qayishqoqligi, jun-tola qalinligi, naqshlilik, gul uzunligi bilan salbiy korrelyasiya aniqlangan. Tananing gullar bilan qoplanishi bo'yicha ishonch me'zoni aniqlanmagan.

S.YU.YUsupov (2010) qo'zilar tug'ilgandagi tirik vaznini homila davrida rivojlanish natijasi deb hisoblab, olingan ma'lumotlar asosida tug'ilganda turlicha tirik vaznga ega bo'lgan qo'zilar turlicha rivojlanadilar degan xulosaga kelgan.

S. YU. YUsupovning (2005) ta'kidlashicha, barcha bug'oz sovliqlar bir hil sharoitda boqilishiga qaramasdan turli xil konstitutsiya va rangdagi qo'zilar tug'ilgandagi tirik vaznida tafovutlar mavjud. Demak, qorako'l qo'zilar embrional davrda o'sishi, hayvonning jun qoplaminin rangi va konstitutsiyasi bilan bog'liq bo'lgan, ma'lum bir irsiy dastur orqali amalga oshiriladi.

Qorako'l qo'ylari gavdasi bo'yicha o'rtacha va nisbatan mayda zotga mansub bo'lsada, yirik bola tug'adi (Vasin B. N., Zakirov va boshqalar). Qo'zilar tug'ilgandagi tirik vazni onasining tirik vaznining 10-12% ni tashkil etadi, vaholanki ko'pchilik boshqa qo'y zotlarida bu ko'rsatkich 7-9% dan oshmaydi. Bu yirik bola berish xususiyati ko'p arslilik yirik o'lchamdagi tovar terilarni olishga yo'naltirilgan maqsadli tanlash natijasidir.

S.YU.YUsupov (2010) bu ko'rsatkich qorako'l qo'zilarini tug'ilgan paytda baholashda asosiy belgilardan biri hisoblanadi, chunki tirik vaznning yuqori bo'lishi teri sathining kattaligini, mollarning kelgusidagi mahsuldorlik darajasini,

choʻl sharoitiga, kasalliklariga chidamliligini va boshqa bir qator xususiyatlarini belgilaydi.

Maʼlumki, organizmning rivojlanishi miqdor va sifat oʻzgarishlaridan tashkil topadi. Organizmning rivojlanish jarayonida yuz beradigan miqdor oʻzgarishlari tabaqalanish deb ataladi. Oʻsish va tabaqalanish organizm ravojlanishning oʻzaro bogʻliq ikki jihatini tashkil etadi va ular embrionlik davrida ayniqsa yaqqol namoyon boʻladi.

M.J.Zokirov (1991) fikricha qorakoʻl qoʻylarni boqish va asrash sharoiti hamda tashqi muhitning boshqa sharoitlari sovliqlar va qoʻchqorlarni qochirish kompaniyasiga tayyorlashga, ularning urugʻlanuvchanligi va serpushtligiga, homila ona qornida rivojlanishi davrida irsiy belgilarning namoyon boʻlishiga qorakoʻl terilarda barralik xossalari va tovarlik belgilari kamol topishiga katta taʼsir koʻrsatadi. Normaga nisbatan har qanday oʻzgarish hayvonning irsiyati imkoniyatlari namoyon boʻlishi va ifodalanganligining yo kuchayishi yoki pasayishiga sabab boʻlishi mumkin.

S.YU.YUsupov (2010) Hayvonlarning oʻsishi nasliy xarakterga ega boʻlib, ushbu salohiyatning yuzaga chiqishi organizm, genotipning tashqi muhitga reaksiyasi natijasida amalga oshiriladi.

Embrional davrda ona organizmidagi muhit sharoiti avlodlarning shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Qorakoʻl qoʻzilarning tirik ogʻirligi ularning yashovchanligiga chambarchas bogʻliqdir. S.Yu.Yusupov (2010) fikricha, qoʻzilar to ajrim davrigacha juda tez rivojlanadi, albatta bu koʻrsatkichga yaylov sharoitining taʼsiri borligini aytadi.

M.A. Ombaevning (2008) taʼkidlashicha, chorva mollarining tirik ogʻirligiga, asosan boqish, asrash, saqlash sharoiti va qoʻshimcha oziqa miqdori taʼsir koʻrsatadi. Qoʻylarning tirik vazni muhim xoʻjalik va biologik ahamiyatiga ega. Gavdasi yirik hayvonlar oʻz tanasida koʻproq tuyimli moddalar yigʻishga qodir va odatda shu xisobidan boshqalarga nisbatan hayotchanlini yaxshiligi bilan farqlanadi.

S. Yu. Yusupov (2005) ta'kidlashicha, hayvon tirik vaznining oshishi bilan uning tanasida ko'proq zahiralalar yig'ilib, ular och qolganda yoki ozuqa tanqisligida sarflanadi. Bir zot yoki suruv ichida gavdasi yirik bo'lgan hayvonlar mustahkam konstitutsiyasi va salomatligi bilan ajralib turadi.

Bir qator mualliflarning kuzatishlaridan ma'lum bo'lishicha, mazkur tip yoki zotdagi hayvonlarning tez etiluvchanligini ko'rsatib beruvchi, umum qabul qilingan va keng ko'llanilayotgan, ko'rsatkich bu tug'ilgandagi tirik vazndir.

Homilaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi barcha omillar, uning vazniga ham ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun, mazkur ko'rsatkich homila davridagi sharoitning organizmga ta'sir etishi juda muhim bo'lib hizmat qilishi mumkin.

Qorako'lchilikda bu masala juda muhim o'rin egallaydi, chunki qo'zilarining turli xil tirik vazni turli tuman qorako'l terilarni shakllantiradi.

Yirik va sog'lom avlod olish ko'p jihatdan sovliqning holatiga bog'liq (M. Egamkulov 2005, U. Kukenov 2010, P. Turapov 2009, A. Gaziev 2009 va boshqalar). Boshqacha qilib aytganda homilaning amerional davrda rivojlanishi uchun sharoit ona organizmida yaratiladi.

A. Gaziev (2009) ma'lumotlariga ko'ra mayda gulli tirik vazni kichik bo'lgan sovliqlardan tug'ilganda tirik vazni kichik qo'zilar, katta gulli sovliqlardan esa aksincha yirik qo'zilar olinadi.

J. Zokirov va boshqalar (1990) ma'lumotlariga ko'ra mayda gulli qo'zilarining tirik vazni kichik, katta gulli qo'zilariniki esa yirik bo'ladi.

X. Tursunov (2008), R. Turganbaev (2010) aniqlashicha, qo'zilar tirik vaznining oshishi bilan mayda gulli va o'rta gulli qo'zilar sonining kamayishi qo'zatiladi. Qo'zilar tirik vaznining o'zgarishi hayvonlarning qorako'l teri va qo'zilar sinfining o'zgarishiga olib keladi.

S. Bazarovning (2012) ta'kidlashicha, yirik qo'zilarining terisi og'ir, qalin va jun tolalari uzun, mayda qo'zilar terisi kichik va jun-tolalari o'rtacha bo'ladi.

Qora rangli qo'zilar tug'ilgandagi tirik vaznining sur qo'zilarga nisbatan og'ir bo'lishini U. B. Sa'dullaev (1968), E. X. Yuldashevlar (1973) ta'kidlab o'tishgan.

T. Umurzoqovning (1989) fikriga ko'ra, tirik vazn barcha gul tiplari bilan u yoki bu jihatdan bog'liqlikka ega, ammo alohida qo'chqorlar avlodida bu bog'liqlik juda o'zgaruvchan. Tug'ilgandagi tirik vazn va teri sathi, teri qalinligi, gul uzunligini qalinligi jun tola uzunligi, yaltiroqlik, ipaksimonlik pigmentatsiya bilan ijobiy, gullarning qayishqoqligi, jun-tola qalinligi, shakldorlik, gul uzunligi bilan salbiy korrelyasiya aniqlangan. Tananing gullar bilan qoplanishi bo'yicha ishonch me'zoni aniqlanmagan.

A. Olimov (2009) qo'zilarining tug'ilgandagi tirik vaznini homila davrida rivojlanish natijasi deb hisoblab, olingan ma'lumotlar asosida tug'ilganda turlicha tirik vaznga ega bo'lgan qo'zilar turlicha rivojlanadilar degan xulosaga kelgan.

S. YU. YUsupovning (2005) ta'kidlashicha, barcha bug'oz sovliqlar bir hil sharoitda boqilishiga qaramasdan turli xil konstitutsiya va rangdagi qo'zilarining tug'ilgandagi tirik vaznida tafovutlar mavjud. Demak, qorako'l qo'zilarining embrional davrda o'sishi, hayvonning jun qoplaminin rangi va konstitutsiyasi bilan bog'liq bo'lgan, ma'lum bir irsiy dastur orqali amalga oshiriladi.

O. Omarov (2002), N. A. Sarsenbaev (2005) qora rangli qorako'l qo'ylar ustida o'tkazgan tadqiqotlarida aniqlashicha, turli gul tiplariga mansub qorako'l qo'zilar ichki organlarining rivojlanishi bir biridan farqlanadi.

Homilaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi barcha omillar, uning vazniga ham ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun, mazkur ko'rsatkich homila davridagi sharoitning organizmga ta'sir etishi juda muhim bo'lib hizmat qilishi mumkin.

Qorako'lchilikda bu masala juda muhim o'rin egallaydi, chunki qo'zilarining turli xil tirik vazni turli tuman qorako'l terilarni shakllantiradi.

S.Yu. Yusupov (2007) ma'lumotlariga ko'ra mayda gulli tirik vazni kichik bo'lgan sovliqlardan tug'ilganda tirik vazni kichik qo'zilar, katta gulli sovliqlardan esa aksincha yirik qo'zilar olinadi.

M. J. Zokirov (1991) ma'lumotlariga ko'ra mayda gulli qo'zilarining tirik vazni kichik, katta gulli qo'zilariniki esa yirik bo'ladi.

A.M. Ombaev (2007) aniqlashicha, qo'zilar tirik vaznining oshishi bilan mayda gulli va o'rta gulli qo'zilar sonining kamayishi quzatiladi. Qo'zilar tirik

vaznining o'zgarishi hayvonlarning qorako'l teri va qo'zilar sinfining o'zgarishiga olib keladi.

S.Yu. Yusupov (2010) ta'kidlashicha, yirik qo'zilar terisi og'ir, qalin va jun tolalari uzun, mayda qo'zilar terisi kichik va jun-tolalari o'rtacha bo'ladi.

Qora rangli qo'zilar tug'ilgandagi tirik vaznining sur qo'zilarga nisbatan og'ir bo'lishini A. Ombaev (2009) o'z tajribalarida o'rgangan.

T. Umurzoqovning (1989) fikriga ko'ra, tirik vazn barcha gul tiplari bilan u yoki bu jihatdan bog'liqlikka ega, ammo alohida qo'chqorlar avlodida bu bog'liqlik juda o'zgaruvchan. Tug'ilgandagi tirik vazn va teri sathi, teri qalinligi, gul uzunligini qalinligi jun tola uzunligi, yaltiroqlik, ipaksimonlik pigmentatsiya bilan ijobiy, gullarning qayishqoqligi, jun-tola qalinligi, naqshlilik, gul uzunligi bilan salbiy korrelyasiya aniqlangan. Tananing gullar bilan qoplanishi bo'yicha ishonch me'zoni aniqlanmagan.

M. I. Kotov qo'zilar teri tug'ilgandagi tirik vaznini homila davrida rivojlanish natijasi deb hisoblab, olingan ma'lumotlar asosida tug'ilganda turlicha tirik vaznga ega bo'lgan qo'zilar turlicha rivojlanadilar degan xulosaga kelgan.

S. YU. YUusupovning (2005) ta'kidlashicha, barcha bug'oz sovliqlar bir hil sharoitda boqilishiga qaramasdan turli xil konstitutsiya va rangdagi qo'zilar teri tug'ilgandagi tirik vaznida tafovutlar mavjud. Demak, qorako'l qo'zilar teri embrional davrda o'sishi, hayvonning jun qoplaminin rangi va konstitutsiyasi bilan bog'liq bo'lgan, ma'lum bir irsiy dastur orqali amalga oshiriladi.

Qorako'l qo'ylari gavdasi bo'yicha o'rtacha va nisbatan mayda zotga mansub bo'lsada, yirik bola tug'adi (Vasin B. N., Zakirov va boshqalar). Qorako'l qo'zilar teri tug'ilgandagi tirik vazni onasining tirik vaznining 10-12% ni tashkil etadi, vaholanki ko'pchilik boshqa qo'y zotlarida bu ko'rsatkich 7-9% dan oshmaydi. Bu yirik bola berish xususiyati ko'p arslilik yirik o'lchamdagi tovar terilarni olishga yo'naltirilgan maqsadli tanlash natijasidir.

Qator mualliflarning S.YU YUusupov, (2012), S.B.Sattorov, M.Egamkulov, S.R.Bozorov (2001) ta'kidlashicha qorako'l terilar sathi qo'zilar teri tug'ilgandagi tirik og'irligi bilan bog'liq, lekin qo'zilar teri tug'ilgandagi tirik og'irligi bilan teri sathi va ularning tovar

xususiyatlari qay darajada bog'liqligi, o'zgaruvchanligi, bu xususiyatlarning turli sharoitlarda namoish bo'lishi, avloddan avlodga o'tish darajalari batafsil o'rganilmagan. SHu chun ham bu masalalarni kompleks ravishda o'rganilishi, yirik sathli, bozor talablariga muvofiq teri etishtiradigan qorako'l qo'ylar suruvlarini yaratish imkonini beradigan seleksion usullarni ishlab chiqarish mumkinligidan dalolat beradi. Keyinchalik ularni amaliyotda qo'llanilishi mavjud bo'lgan naslli qo'ylar sifatini yanada yaxshilash va eksportbop keng sathli terilar ishlab chiqarish miqdorini oshirish imkonini berishi mumkin.

S.R.Bozorov (1990), S.B.Sattorov, M.Egamkulov, S.R.Bozorov (2001) ta'kidlashicha mustahkam konstitutsiyali qo'ylarni juftlash 81 % shu tipdagi avlodlar olish imkonini beradi. M.J.Zokirov, S.YU.YUsupovlar (1992) esa konstitutsiya hayvonlarning mahsuldorligi ularning tashqi muhit faktorlariga reaksiyasiga qarab ifodalanadi deb ta'kidlaydilar.

Qo'yning tumshug'i uchli bo'lib, lablari yupqa va serharakatdir. Kesuvchi tishlari o'tkir, baquvvat va oval shaklida bo'lishi tufayli, dasht va cho'llardagi bo'yi past, mayda va siyrak o'tlarni juda yaxshi uzib olishga moslashgan. SHuning uchun ham qishloq xo'jaligi hayvonlarining boshqa turlari o'tlab to'ymaydigan joylarda qo'ylar bemalol oziqlanib yuradi.

N.A.Bobokulov (2005) saqlash va oziqa sharoiti yaxshi bo'lishi qo'ylar mahsuldorligini yuqori bo'lishi teri sifatini ham yaxshilaydi deb ta'kidlaganlar.

Qo'ylarning asosiy biologik xususiyatlaridan biri yozgi eng issiq va qishki sovuqlarga bardosh bera olishidir. Qo'ylar qoramollarga nisbatan ko'p xil o't eydi. Tajriba qilib ko'rilganda qoramollar o'tloqdagi o't turlarining 34% ini, qo'y va echkilar esa 62% ini eyishi aniqlangan.

Qorako'l qo'ylari qishning sovuq kunlarida normal boqilsa, oriqlariga qo'shimcha em-xashak, qolganlariga kechalari pichan berib, kunduzlari dalada o'tlatib, semizligi o'rtachadan pasayib ketmasa, jun quruq bo'lsa ular qishda nobud bo'lmaydi. Qorako'l qo'ylarining yana bir ajoyib biologik xususiyati shundaki, ular semizligi o'rtachadan past bo'lmasa, qishning sovuq kunlarida ham qor tagida qolib ketgan o'tlarni tuyoqlari bilan ochib eya oladi.

Qorako'l qo'ylari faqat bahorda ko'katga to'yadi, qolgan davrlarda o'tloqda boqiladi. Qo'yning og'zi ko'kka tegishi bilan u pichan va daladagi quruq o'tlarni ham emay qo'yadi. Bu vaqtlarda tajribali cho'ponlar qo'ylarni ko'pincha kechasi boqa boshlaydi. Kechalari qo'ylar yaxshi ko'rmaganligi sababli, uchragan o'tni aralash eb ketaveradi. Qish iliq kelib, o'simliklar maysa urganda qo'yni ko'kka to'ydirish yaxshi, biroq qo'y ko'kka to'ygan vaqtlarda birdaniga harorat pasayib, qalin qor tushib, er yuzini va undagi o'simliklarni qoplasa, qo'ylar qo'ldan berilgan pichanni aslo emay qo'yadi. Bu holda qor uzoq tursa, qo'ylar ochlik va shamollashdan nobud bo'lishi, bo'g'oz qo'ylar esa bolasini tashlab qo'yishi mumkin. Qo'ylarning bu xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. Qorako'l qo'ylari to'g'ri boqilsa va asralsa, o'rtacha semiz, sog'lom va har xil kasalliklardan xoli, juni quruq, o'siq va qalin bo'lsa, qishning har qanday qattiq kunlariga bardosh bera oladilar.

Qo'zilarning tirik og'irligi bir qancha sabablarga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin. Bular jumlasiga qo'ylarning zoti, yoshi, jinsi, konstitutsiyasi, urchitish hududi, qo'zining ona qornida rivojlanishi, soni, sovliqning anatomik fiziologik holati va boshqa omillar kiradi. SHuning uchun men ushbu bitiruv malakaviy ishimda tirik og'irligi har xil bo'lgan sur qo'zilarining sifat ko'rsatkichlarini o'rganishni maqsad qildim.

II. Xo‘jalikning tarixi

Navoiy viloyati Konimex tumanida joylashgan “Saribel” naslchilik shirkat xo‘jaligi O‘zbekiston qishloq xo‘jalik vazirligining 26 avgust 1957 yildagi № 318-K buyrug‘iga asosan Beshrabort massividagi chorva fermalari asosida tashkil topgan. Uning markazi “YAngi g‘azg‘on” deb belgilangan.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi vazirligining 28 aprel 1976 yildagi №208 buyrug‘iga asosan, avvalgi “Kommunizm” hozirgi “Saribel” sovxoziga “Davlat naslchilik zavodi” maqomi berilgan. 1980 yili zavodning №3 fermasi asosida “Komsomolobod” sovxozida tashkil qilingan. 1992 yilning avgustida “Kommunizm” naslchilik zavodi “Saribel” deb nomlangan. 1994 yil “Saribel” uyushmaga 1999 yil mart oyidan boshlab “Saribel” naslchilik shirkat xo‘jaligiga aylantirilgan.

Xo‘jalik tashkil bo‘lgan yillardan boshlab sur rangli qorako‘l terilarga ichki va ayniqsa tashqi bozorlarda talab tez o‘sa boshladi. Qora rangli qorako‘lga nisbatan sur rangli terilar narxi 1.5 barovar oshganligi sur qo‘ylarini urchitishga kata turtki bo‘ldi.

Sur qo‘ylarni urchitish uchun etarli ilmiy usul, ishlanma va takliflar borligi xo‘jaliklarga katta foyda berdi.

“Saribel” xo‘jaligi tashkil bo‘lganda(1957 yil) 70 mingdan ko‘proq qo‘y bo‘lib ularning 95 % dan ko‘prog‘iqora ranga mansub bo‘lib, duragay va pats sinflilar 40 % dan ko‘prog‘ini tashkil qilgan.

Xo‘jalikning iqtisodini yaxshilash maqsadida 1961 yili Oyoq-og‘itma tajriba sansiyasidan 50 bosh va 1969 yili Buxoro viloyatining kolxozlarida 150 bosh sur qo‘chqorlar krltirib surchilik bilan shug‘ullanishga asos solingan edi. Keltirilgan sur qo‘chqorlar bilan xo‘jalikdagi qora rangli qo‘ylar sun‘iy usulda urug‘lantirish yo‘li bilan ularning irsiy ta‘sirini oshirishga erishilgan. Natijada qora rangli geterozigat qo‘ylar yildan – yilga ko‘payib ularni sur qo‘chqorlar bilan urug‘lantirish asosida sur qo‘zi olish imkoni yaratilgan.rang bo‘yicha har xil juftlash, y‘ani geterozigat qora rangli qo‘ylar (sur qo‘chqorlardan tug‘ilgan) sur

qo'chqorlar bilan juftlashtirish tufayli 50 foizgacha sur qo'zi olish imkoniga erishilgan edi.

Sur rangli qo'ylar ko'payishi bilan sur rang bo'yicha bir xil juftlashga o'tish tufayli sifatli, surlik darajasining nomoyonligi yaxshi ifodalangan, jun tola sifati yaxshi qo'zilar yildan-yilga ko'payib ularning orasidan naslli qo'chqorlarni tanlash imkoni tug'ila boshlagan edi. Bir yo'la pats sinfli va quragay qo'ylarni sueuvdan chiqarish ishlari ham olib borilgan natijada 1961 yil xo'jalik 1.2 % sur teri etishtirgan bo'lsa, 1980 yilga kelib terilar

“Saribel” naslchilik shirkat xo'jaligi 1976 yili naslchilik zavod toifasiga o'tkazilgan. SHu bilan bir vaqtda xo'jalik Buxoro suri qorako'l qo'ylarining yassi gul tipini urchitishga ixtisoslashtirilgan edi. YUqorida aytilganidek o'tgan davrda xo'jalikdagi qo'ylarni 99.4 foizi sur rangga mansub bo'lishiga erishilgan. Har yili past sinfli va qorasur qo'ylarini suruvdan chiqarish natijasida ularni 40 foizdan 18-20 foizga tushishig erishilgan.

Naslli sur qo'chqorlarini tanlashga e'tibor yildan yilga oshishi natijasida ularning sifatlari yaxshilanib qalam gullilari va yassi gullilaridan iborat bo'lishiga erishilgan. Ularning 70 foizi elita sinfiga mansub. YAna bir muhim yutuq bu xo'jalikdagi sur qo'ylarning 70-80 foizi kumushsur rangbaranglikda bo'lishidadir. YAssi gulli qo'ylar seleksiyasiga alohida etibor berilishi va yassi gulli sur qo'chqorlaridan su'niy urug'lantirish usuli orqali unumli foydalanish shu qo'ylarning xo'jalik podasida 30-35 foizni tashkil qilishga olib keladi.

Umuman olganda, “Saribel” naslchilik shirkat xo'jaligidagi Buxoro suri qorako'l qo'ylari o'ziga xos yuqori maxsuldor yassigulli kumush rang baranglikdagi genafondiga aylangan.

Endigi vazifa 2012-2014 yillarda erishilgan seleksion yutuqlarni mutsahkamlab maqsadli juftlash asosida naslchilik ishlarini xo'jalik qorako'l qo'ylarini maxsuldorlik va nasliy xususiyatlarini takomillashtirish zot tipiga mansub qo'ylarni sifatliy va miqdoriy jixatdan rivojlantirish talab qilinadi. Natijada xo'jalikda qorako'l qo'ylaridan olingan mahsulotlarning eksport bopligi

oshadi, qo'ylarni sifati yaxshilanadi. Bular xo'jalikning samaradorligini yanada yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi.

Xo'jalikning tabiiy, iqlim va yaylov sharoiti

Xo'jalikning umumiy er maydoni 159861 gektar bo'lib shulardan 159783 gektari tabiiy yaylovlardir. Umumiy er maydoninig 120 000 ga butazor va saksovulzorlar tashkil etadi. "Saribel" nasilchilik shirkati xo'jaligi Navoiy viloyati Konimex tumanida joylashgan. Uning shimol qismida "Qizilqum", sharqida "Oyoq-quduq", janubida "Sarjal", "G'ozg'on" va g'arbida "Qizilcha" hamda Abay nomidagi shirkati xo'jaliklari joylashgan.

Iqlim sharoiti keskin o'zgaruvchan, yozda nihoyatda issiq va quruq, qishda sovuq xavosi bilan farq qiladi. Xavoning o'rtacha yillik harorati 15-16C. Eng issiq oy iyul, bu oyda xarorat 44-46C bo'lishi mumkin. Dekabr oyining oxiri va yanvar oyi eng sovuq davr hisoblanadi. Bunda xavo xarorati -2C dan to -28C gacha bo'lishi kuzatilgan. Xavoning namligi o'rtacha 30% bo'lib, yozda 10% gacha bo'lishi mumkin. Yillik yog'ingarchilik o'rtacha 160-170 mm, uning eng kam miqdori 80-90 mm va yuqorisi 280-300 mm bulishi kuzatilgan.

Xo'jalikning yaylov hosildorligi turli xil bo'lib, o'rtacha 2-3 s.ni tashkil qiladi. Xo'jalikda asosan rangli o'simliklar efemer bir yillik o'tlardan ilok, arpog'on, qo'ng'irbosh, yaltirbosh va boshqalari ko'p uchraydi. Bundan tashqari buta va yarim butalarda singron borjok, salin, cherkez, kovrak, oq va qora saksovul o'simliklari ham ko'p uchraydi va quyidagicha ta'riflanadi.

Iloq - Hiloldoshlar oilasidan, qumsevar ildizpoyali efemeroid, bo'yi 15-25sm. U kuchli va kam rivojlangan qumlar, qum tepaliklar orasidagi tekisliklar, qumli tuproklarning sho'rlanmagan maydonlarida keng tarqalgan. Qumni mustahkamlovchi o'simlik, uning ildizlari tuproqning yuza qismida kuchli rivojlangan. Fevralning oxiridan maysalay boshlaydi. Kuz seryomg'ir, iliq kelsa, oktyabr-noyabr oylarida ham ko'karadi, martda gullaydi, aprelda urug' beradi. Qumli yaylovlarning barcha zotli mollari uchun o'ta muhim bahorgi ko'kat hisoblanadi. Quruq xashagi ham to'yimli ozuqa. Bahorda ilok pichanida (gullash

davri) 14,1% protein, 2,7% yogʻ, 48,8% AEM va 24,1% kletchatka bor. 100 kg pichanida 94 ozuqa birligi saqlaydi.

YAltirbosh – Gʻalladoshlar oilasiga mansub, boʻyi 15-40 sm keladigan 6ir yillik oʻt. Zichlashgan qumlar, boʻz tuproqlar va qoʻngʻir-boʻz tuproqlarda keng tarqalgan. Fevral-martda unib chiqadi, aprelda gullaydi va urugʻ beradi. Koʻkat holida ham quriganida ham chorva mollar uchun yaxshi oziqa. Urugʻ tugish davrida pichani tarkibida 17,5% protein, 3,6% yogʻ, 45,0% AEM, 8,5% kul moddalari va 25,27% kletchatka saqlaydi. Tuyimlili 92,3 ozuka birligiga teng. Qumli, gipsli choʻl yaylovlari mahsuldorligini oshirishda istiqbolli fitomeliorant.

Qoʻngʻirbosh – Gʻalladoshlar oilasiga mansub, boʻyi 15-35sm, efemeroid. Turli-tuman tuproq, ekologik sharoitlarda (gips, boʻz, shagʻalli tuproqlarda, togʻ etaklari) keng tarqalgan tur. Erta bahorda maysalaydi, aprel mayda gullaydi va urugʻlari pishadi. Urugʻi qoʻngʻir piyozcha, shuning uchun ham uni qoʻngʻirbosh deb atashgan. koʻkat holida ham, qurigandan keyin ham chorva mollarining toʻyimli xush koʻrib eyiluvchi ozigʻi hisoblanadi. Uning pichani tarkibida 10,1% protein, 1,5% yogʻ, 4,4% AEM va 35-40% kletchaika saqlaydi. 100 kg pichanida 64,6 ozuka birligi bor. Tabiiy yaylovlar mahsuldorligini oshirishda istiqbolli fitomeliorant.

Arpagʻon - Gʻalladoshlar oilasidan, boʻyi 10-25sm, efemer. Qum va boʻz tuproqli maydonlarda oʻsadi. Mart-aprelning boshlarida koʻkarib chiqadi may oyida urugʻlari pishadi. Uni chorva mollari koʻkligida ham quriganidan keyin ham yaxshi eydi. Ob-havo qulay kelgan yillari undan xashak jamgʻarish mumkin.

CHitir- Krestguldoshlar oilasiga mansub, boʻyi 10-50, efemer, Oʻzbekistonda chitirlar turkumiga kiradigan oʻsimliklarning 14 turi mavjud. CHitirlar choʻllarda turli-tuman tuprok sharoitlarda oʻsadi, aksariyat adir va togʻ oldi yaylovlarida keng tarqalgan. CHitirlar orasida eng toʻyimlisi va hosildori oq. chitirdir. Oqchitirlar mart oyida maysalaydi, aprel-mayda gullaydi, may-iyunda urugʻi pishadi. Oqchitirni barcha turdagi chorva mollari xush koʻrib eydi. Pichani esa oʻta toʻyimli boʻlib, undan oziqlangan mollar tez semiradi. Oqchitir pichani tarkibida 24.2% protein va 22,6% kletchatka mavjud. 100kg pichanida 96,2 ozuka

Girliigi bor. Sernam yillari chorvadorlar ko‘plab chitir xashagi g‘amlaydilar. CHitirlar yaylovlar mahsuldorligini oshirishda ham istiqbolli o‘simliklar hisoblanadi.

No‘xatak – Dukkakdoshlar oilasidan, bo‘yi 10-40sm keladigan bir yillik o‘t. U bo‘z, qo‘ng‘ir - bo‘z, tuproqlarda zichlashgan qumlarda o‘sadi. qorakul qo‘ylari, echki, qoramollarning to‘yimli ozig‘i. Uni chorva mollari ko‘kat holida ham, pichan holida ham yaxshi iste‘mol qiladi. No‘xatak pichani tarkibida (urug‘ tugish davrida) 22,37% protein, 2,65% yog‘, 49,8% AEM, 10,36% kul moddalari va 14,9% kletchatka mavjud.

Rang, qorabosh - Hiloldoshlar oilasiga mansub efemeroid bo‘yi 6-25sm. Soz, qumoq, mexanik tarkibli bo‘z tuproqlarda tarqalgan o‘simlik. Rang tuproqning yuqori qatlamini butunlay qamrab oladi. Erta bahor (kuz) maysalaydi, aprel oyida gullaydi, mayda urug‘lari pishadi.

Boshog‘i qo‘ng‘ir qoramtir tusda bo‘lgani sababli qorabosh nomi bilan ham ataladi. Barcha zotli chorva- mollari, butun yil davomida xush ko‘rib eyuvchi ozuqa. Rang pichani tarkibida 19% protein, 4,5% yog‘, 46% AEM va 20,5% kletchatka bor. 100 kg pichani tarkibida yozda 51,7 ozuka birligiga ega.

Bir yillik sho‘ra o‘tlar.

Baliq ko‘z - SHo‘radoshlar oilasiga mansub bir yillik shirali sho‘ra o‘t. O‘simlikning bo‘yi 20-60sm. Barglari etli, shirali, yarimyassimon, qo‘ng‘ir havorang tusda. Taqirsimon, qo‘ng‘ir-bo‘z, turli darajada sho‘rlangan qumlar. SHo‘rxok maydonlar atroflarida o‘sadi. U mart oyida unib chiqadi. Iyul avgust oyida gullaydi, urug‘lari sentyabr-oktyabrda pishib etiladi. Baliqkuz kuz va qishda qo‘y va tuyalar uchun yaxshi ozuqa hisoblanadi. Boshka bip yillik sho‘ra o‘tlar qatori baliqkuz qochirish davrida muhim ozuqa hisoblanadi. Baliqkuz pichani tarkibida 6,6% protein, 5,6% yog‘, 19,3% AEM va 18,9% kletchatka bor. 100 kg pichani bahorda 23, yozda 47, kuzda Z6 va qishda 30 ozuqa birligini saqlaydi. SHo‘rhok tuproqli yaylovlar, gipsli cho‘l yaylovlari mahsuldorligini oshirishda istiqbolli tur.

Donashur - SHoʻradoshlar oilasidan, past boʻyli bir yillik shirali shoʻra oʻt. Taqirlar va shoʻrlangan tuproqlarda oʻsadi. Poyasi tik, asosidan shoxlangan koʻlrang tusda. Pastki barglari yassi, ustki barglari navbatlashib joylashgan, etli, ikki tomoni va tukchalar bilan qoplangan. Donashur mart oyida unib chiqadi, may-iyunda gullaydi, urugʻlari ancha erta (avgust-sentyabr pishib etiladi). U qoʻy va tuyalar uchun kuz va qish oylari davomida eyiluvchan ozuqa hisoblanadi. 100 kg quruq pichanida 34 ozuqa birligi bor. SHurlangan yaylovlar mahsuldorligini oshirishda istiqbolli tur.

Oq shuvoq– (yovshon, jusan) – bir yillik novdalari qoʻngʻir yashil rangli, barglari mayda, kuchli qirqilgan. Poya va barglari oq tukchalar Bilan qoplanganligi sababli, uni oq shuvoq ham deb atashadi. Oq shuvoq pichani urugʻ berish pallasida quyidagi ozuqa tarkibiga ega. Protein 8,0%, yogʻ – 5,5%, AEM-35,2%, kul moddalari 6,7% va kletchatka 45,4%. 100 kg pichani tarkibida yil mavsumlari boʻylab 66-18 ozuqa birligiga (oʻrtacha 31 ozuqa birligi) ega.

Izen– SHoʻradoshlar oilasiga mansub yarim buta. Boʻyi 30-85 sm. izen 3 ekotipga ajratiladi: qumli, shagʻalli va soz tuproqli. Qumli izenning novdalari oqish rangdagi tuklar Bilan qoplangan. Bargchalari kichikroq Qizilqum, Muyunkun va boshqa qumli choʻllarda oʻsadi. Kumli va qumoq choʻl yaylovlarini yaxshilashda istiqbolli oʻsimlik. SHagʻalli yoqitoshloq tuproqli izenning novda va barglari yashilroq rangli, toʻplangan. Adir va togʻ oldi hududlarining shagʻalli, toshloq maydonlarida turli mexanik tarkibdagi boʻz tuproqlarda tarqalgan. CHoʻl va adirlar sharoitida yaylov agrofitotsenozlar barpo etish uchun oʻta muhim fitomeliorant.

Soz tuproqli izen ochiq sariq, baʼzan kizgʻish rangdagi novdalardan iborat boʻlib, tuklanish darajasi birmuncha kamligi Bilan farqlanadi. Tabiiy holda soz tuproqli togʻ oldi maydonlarida va shoʻrlangan tuproqlarida tarqalgan. Izen mart oyida koʻkaradi, yon shoxchalar, novdalar hosil qilib, erta bahordan kech kuzgacha uzoq vaqt koʻkat holida boʻladi. May-sentyabr oylari gullaydi, urugʻlari sentyabr-oktyabr oylarida pishadi.

SHuvoqlar – Murakkabdoshlar oilasiga mansub yarim buta, xashakbop oʻsimliklardir. Boʻyi ularning turlariga qarab 20-100 smga etadi. Choʻllarning

barcha tiplarida turli-tuman tuproq sharoitalirda keng tarqalgan tur. Ildiz sistemasi asosan tuproqning yuza qismida (0,6-1,2 metr) tarqalgan. Fevralning oxiri martning boshlarida ko‘karadi va xarorat keskin ko‘tarilishi va tuproqda nam kamayishi bilan (iyun-avgust oylarida) o‘shishdan to‘xtaydi. Sentyabrdan boshlab o‘shishni davom ettiradi. Sentyabrning oxirlarida gullaydi, urug‘lari noyabrda pishi etiladi.

SHuvoqlarni chorva mollari asosan kuz va qish mavsumlarida xush ko‘rib eydi. SHuvoqzor qorako‘l teri sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. SHuvoqlar kuzgi-qishki va yil davomida foydalaniladigan yaylovlar barpo etishda muhim xashakbop o‘simliklardir.

Xaridandon, Buzoqbosh – SHo‘radoshlar oilasiga mansub bir yillik sho‘ra o‘t, bo‘yi 25-30sm. SHo‘rxoklar, taqirlar va boshqa sho‘rlangan tuproqlarda o‘sadi. Barglari chiziqli, uzunligi 4-5sm, shirali, etli, zich joylashgan tukchalar bilan qopgangan. Aprel-oktyabr oyigacha ko‘karadi, sentyabr-oktyabrda urug‘ beradi.

O‘shish davrida chorva mollari xaridandonni deyarli emaydi: kuz va qish mavsumlarida qo‘ylar va tuyalar uni yaxshi eydi, semirtiruvchi ozuka hisoblanadi. Urug‘ berish pallasida xaridandon pichani tarkibida 7,1% protein, 2,5% yog‘, 34% AEM va 21,4% kletchatka bo‘ladi. 100kg pichanidagi ozuqa birligi quyidagicha yozda 47, kuzda 36, qishda 30. SHo‘rlangan yaylovlar va taqirlarning mahsuldorligini oshirishda.

Oq saksovul– SHo‘radoshlar oilasiga mansub 3-4 m balandlikdagi daraxtsimon buta, u qora saksovuoldan fark qilib qumlarda tarqalgan va tanasining oq po‘st bilan qoplanganligidadir.

Qo‘y, echki va tuyalar kuz va qish mavsumlarida uning yumshagan novdalarini, urug‘ini yaxshi eydi. Oq saksovulning pichanida 3,0-10,0 protein 25,0-40,0% AEM va 13,0-16,0%. kletchatka mavjud. 100 kg pichanida 53 ozuqa birligi bor. Oq saksovuoldan qumli maydonlarni mustahkamlashda, yaylovlar mahsuldorligini oshirishda keng foydalaniladi.

Qizil qandim – Torondoshlar oilasiga mansub, bo‘yi 1,5-2,5 metrgacha bo‘lgan daraxtsimon buta, Qizilqandim kuchuvchan va kam zichlashgan qumlarda keng tarqalgan. Martning ikkinchi yarmi - aprelning boshlarida ko‘kara boshlaydi,

mayning birinchi un kunligida gullaydi, iyunning oxirida urugʻlari pishadi. Bir yillik novdalari bahor va yoz oylari yaxshi eyiladi. Qandimning pichani tarkibida gullash davrida 12,5% protein, 1,1% yogʻ, 34,4 AEM, 19,4% kul moddalari va 30,0% kletchatka mavjud. 100 kg pichani yil mavsumiga qarab 37-59 ozuka birligiga ega. Qumli yaylovlar mahsuldorligini oshirish, kuchuvchan qumlarni mustahkamlashda foydalaniladi.

Qizilcha borjoq– zagozadoshlar oilasidan, boʻyi 1,5-2 metrga etadigan, kuchli shoxlangan, doimiy yashil buta. Aksariyat qumli choʻllarda tarqalgan boʻlib, yuzasi qumoqlashgan gipsli tuproqlarda ham uchraydi. Vegetativ usulda koʻpayadi, bir asosiy ildizpoya atrofida yordamchi ildizlar vositasida bir talay YAngi novdalar vujudga keladi. CHorva mollari uni yilning barcha mavsumlarida foylanadigan ozuqa hisoblanadi. Gullash davridagi ozuqaning qiymati quyidagicha: protein – 16,8%, yogʻ – 3,7%, AEM – 31,6%, kul moddalari – 9,6%, kletchatka 30,4%. 100 kg pichanida bahor paytida 73,6 ozuqa birligi bor. U qumlarni mustahkamlashda, choʻl mintaqasi uchun manzarali oʻsimlik sifatida istiqbolli.

Singren– Dukkakdoshlar oilasidan, boʻyi 70-120 sm butacha. Qumli va gipsli choʻlda tarqalgan. Markaziy Osiyo qumli choʻllarining endemigi. Poyalari yoʻgʻon, sershox, ochiqrang tukchalar Bilan qoplangan. Mart oyida koʻkaradi, aprel-mayda gullaydi, urugʻlari iyunda pishadi.

CHorva mollari uning bartchalari, gullari dukkaklari va bir yillik novdalarini isteʼmol qiladi. YUqori toʻyimli ozuqa: gʻunchalash davrida pichani tarkibida 19,8% protein, 2,56% yogʻ, 10,4% kul moddalari, 32,5% AEM va 26% kletchatka saqlaydi. Toʻyimlili: 100 kg pichanida bahorda 61 va kuzda 32 ozuqa birligi bor. Qumli choʻllar mahsuldorligini oshirishda istiqbolli fitomeliorant.

Dagʻal poyali oʻsimliklar.

Yantoq – dukkakdoshlar oilasiga kiruvchi, buyich 50-130 sm atrofidagi koʻp yillik oʻsimlik. Oʻzbekistonda ntoqning 4 ta turi boʻlib, ulardan eng koʻp tarqalgani yolgʻon yantoqdir. YAntoq kam shoʻrlangan, nam Bilan taʼminlangan maydonlarda, daryolar uzanlarida, past tekisliklarning er osti suvlari yaqin joylashgan maydonlarida koʻproq tarqalgan. Uning kuchli rivolangan ildizi er osti

suvlari tarqalgan tuproq qatlamlarigacha etib boradi. Poyasi sershoh, novdalari silliq, tuksiz utkir burchakli tik o'suvchan. Barglari tuxumsimon cho'ziq, tikanchalarining uzunligi 1-3 sm bo'lib, o'zgargan novdlara hisoblanadi. Aprelda ko'karadi, iyun-avgustda gullaydi, urug'lari sentyabr-oktyabrda pishib etiladi. YAntoq chorva mollari uchun to'yimli ozuqa hisoblanadi, ayniqsa qorako'l quylari uchun qishqi xashakdir. Gullash davrida pichani tarkibida 12,6% AEM mavjud. 100 kg pichanida 33,5 ozuqa birligiga ega. YAntoqlar shifobaxsh va shakar yig'uvchi, hamda asalarichilikda qo'llaniluvchi o'simliklar sifatida ham diqqatga sazovor. Yaylovlar mahsuldorligini oshirishda qo'llaniladigan istiqbolli o'simlik.

Karrak oq karrak -Murakkabdoshlar oilasiga mansub, buyi 40-60 sm, namgarchilik yillari 1 metrgacha etadigan ikki yillik o'simlik. Adirlar va tog' etaklarida eng ko'p tarqalgan. Barglari qirqilgan, uchi tikanli, ostki tomoni oq tukchalar bilan qoplangan. Har yili to'pbarglar hosil qiladi, qulay sharoit bo'lgach, poya chiqaradi va gullar shu bilan kurydi. May oyida gulga kiradi, iyunda urug'lari pishdi.

O'sish davrida karrakni faqat tuyalar iste'mol qiladi, boshqa chorva mollari esa faqat pichanini yanchilgan holida eydi. SHonalash davrida karrak pichanida 9% protein, 44% kletchatka va boshqa zarur moddalar saqlaydi. Karrak qorako'lchilik hududlari uchun qish oylari mobaynida qo'shimcha oziqlantirishga mo'ljallangan ozuqa tayyorlashda muhim manbaa hisoblanadi.

Selin– Boshqodoshlar oilasidan, buyi turiga qarab 40-60 smdan 80-150 smgacha etadigan, chim hosil qilib o'suvchi ko'p yillik o'tchil o'simliklar. Urg'ochi va nar selinlar qumli cho'llarda keng tarqalgan. Ildiz sistemasi yon tomonlarga kuchli rivojlangan, ikkalasining ham biologik xususiyatlari odatda keskin farq qilmasada, tuyimlik jihatdan urg'ochi Selin biroz ustunroq. Urg'ochi selinning barglari ingichka, qattiq lentasimon, butun ildizi oldidan o'sib poyasini nov holida o'rab turadi. Ildizi chim hosil qilib, diametri 0,5-1,0 smga etadi. Erta bahordan yozning o'rtalarigacha maysalaydi, may oyida gullaydi, urug'lari iyulda pishadi. O'sish davrida eyiluvchanligi yukori emas, undan tayyorlangan pichanni

barcha turdagi chorva mollari yaxshiroq eydi. Uning pichanining ozuqaviy qiymati: protein 3,7%, kletchatka 44% borligi aniqlangan. 100 kg pichanida 34,5 ozuqa birligi saqlaydi. Ko‘chuvchan qumlarni mustahkamlashda muhim fitomeliiorant.

Kavrak – Soyabonguldoshlar oilasiga mansub, buyi 100-120 smga etadigan monokarpik (hayotida bir marta gullab meva beradigan) ko‘p yillik o‘simlikdir. Kavrak bahorda ko‘karib, faqat ildizi oldi barglar hosil qiladi. Barglari yildan-yilga kattalashib boradi, ildizi esa yo‘g‘onlashib ko‘p miqdorda ozuq moddalar to‘playdi. U hayotining 7-13 yillari poya hosil qiladi va gullaydi.

Urug‘ berish pallasiga kirgan yili barglarining uzunligi 50-60 sm, diametri 1 metrgacha etadi. Maar-aprel oylarida gullaydi. Generativ novdasining uchida sariq rangli murakkab soyabonchali to‘pgul hosil qiladi, urug‘lari may-iyun oylarida pishadi. Kavraklar ko‘kat holida deyarli eyilmaydi. Pichan holida iste‘mol qilinadi. Kavrak urug‘ida 14-19% protein, 8% yog‘, 37-47% AEM va 23-27% kletchatka bor. Kavrak poyasidan chiqadigan chirk «asafetida»dan sharq tibbiyotida foydalaniladi, ildizidan kavrak kraxmali olinadi. Adir va tog‘ oldi yaylovlarini boyitishda qo‘llanilishi mumkin.

Xo‘jalikda keyingi yillar mobaynidagi erdan foydalanish, em-xashak tayyorlash, chorva mol bosh soni, chorva mollarning poda ctруктурasi, mahsulot ishlab chiqarish, mahsulotni soti va mahsulot ishlab chiqarishning tannarxi umaman olganda moliyaviy ahvolining tahlili quyidagi jadvallarda keltirilmoqda.

1-jadval

Xo‘jalikda erdan foydalanish

Ko‘rsatkichlar	ga	%
Jami er maydoni	159861	100
Yaylov	159783	99.95
SHu jum.saksovulzorlar	120.000	75.1
Axoli yashaydigan xududlar	78	0.049

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki xo‘jalikning jami er maydoni 159861 gektar bulib shundan 159783 gektari yaylovlardan iboratdir bu esa xo‘jalikning umumiy er maydonining 99.95% ni tashkil qiladi.

Xo'jalikning yaylovining 75.1% ni tbiy butazor va saksovulzorlar tashkil qiladi.

2-jadval

Xo'jalikda em-xashak tayyorlash

Oziqa turi	O'lchov birligi	2011	2012	2013
Dag'al xashak	s	88150	54380	34926
Omuxta em	s	7445	2337	15594

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarida ko'rinib turibdiki xo'jalikda 2011 yilda 88150 sentner dag'al xashak tayyorlangan. 2012 yilda 2011 yilga nisbatan 33770 sentner kam dag'al xashak, 5108 sentner kam ozuqa tayyorlangan. 2013 yilda 2012 yilga nisbatan 19454 sentner dag'al xashak kam jamg'arilgan, lekin ozuqa etishtirish 13257 sentner ortig'i bilan bajarilgan buni yilning og'ir kelganligi dag'al xashakning kam jamg'arilganligi va hosildorligining past bo'lganligi bilan izohlash mumkin.

3-jadval

Xo'jalikda chorva mol bosh soni

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2011	2012	2013
Jami qo'ylar	bosh	70000	71223	56200
Otlar	bosh	162	171	185
Tuyalar	bosh	177	186	198

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki xo'jalikda chorvamollar bosh soni yildan yilga kupayib borgan 2013 yilda qo'ylar 56200 ming bosh bo'lsa 2012 yilda 15023 bosh ga kamaygan. SHuningdek ot va tuyalar soni ham yildan yilga ko'payib borgan. 2011 yilga nisbatan 2013 yilda otlar 23 boshga, tuyalar esa 21 boshga ko'paygan.

4-jadval

Xo'jalikning poda cstrukturasi

Ko'rsatkichlar	2011	2012	2013
Jami qo'ylar; SHu jumladan	70000	71223	56200
Ona qo'ylar	45000	46000	40912
O'stirishga			

qoldirilgan urg'ochi qo'zilar	15795	16486	13320
Naslli qo'chqorlar	2850	2906	1968

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xo'jalik chorva mollarining asosiy qismini sovliqlar tashkil etib, 2013 yilda 64,3 %, 2012 yilda 60,5 %, 2013 yilda 61.6% tashkil qilgan. Xo'jalikda naslli qo'chqorlar jami qo'ylarning 2013 yilda 4,1 %, 2013 yilda esa 3,9 % ni tashkil qilgan. O'tgan yili to'g'ilgan urg'ochi qo'zilar 2013 yilda jami qo'ylarning 22.7 % ni tashkil etgan.

5-jadval

Xo'jalikda mahsulot ishlab chiqarish

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2011	2012	2013
Qorako'l teri	dona	12100	11450	11282
Jun	s	1179	1181	1183
Go'sht	s	2062	2072	2074
SHirdon		9340	8000	8000

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki xo'jalikda 2013 yilda 12100 dona qorako'l teri ishlab chiqarilgan ya'ni 650 dona qora ko'l teri kam ishlab chiqarilgan, 2013 yilda o'tgan yilga nisbatan 168 dona qorako'l teri kam ishlab chiqarilgan. Jun va go'sht ishlab chiqarish 3 yil mobaynida ham 2 tsentinerdan ko'payib borgan. SHirdon ishlab chiqarish aksincha 2013 yilga nisbatan 2012-2013 yillarda 1340 donaga kam ishlab chiqarilgan.

6-jadval

Xo'jalikda mahsulot sotish

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2011	2012	2013
Qorako'l teri	dona	12127	10388	11344
jun	t	1256	1677	1288
go'sht	t	2063	2072	2074
shirdon	dona	9340	8000	8000

Yuqoridagi jadval ma'umotlardan ko'rinib turibdiki xo'jalikda 2013 yilda 12127 dona qorakul teri sotilgan,2012 yilda 2013 yilga nisbatan 1739 dona kam sotilgan.2013 yilda 2012 yilga nisbatan 1956 dona teri ko'p sotilgan.jun va

gusht ishlab chiqarish ham yildan yilga kupayib brogan,shirdon ishlab chiqarish esa 2013 yilgta nisbatan 2012-2013 yillarda 1340 donadan kam sotilgan.

7-jadval

Xo'jalikda mahsulotni sotish baxosi

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2011	2012	2013
Qorako'l teri	Ming so'm	14080	17435	23515
jun	s	49535	45000	85550
go'sht (tirik vaznda)	s	82000	9000	9400
SHirdon	dona	300	450	800

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xo'jalikda ishlab chiqarilgan 1 dona qorako'l teri 2013 yilda 23515 so'mga, 2011 yilda esa 14080 so'mga, 2012 yilda esa 17458 so'mga sotilgan. 2013 yilda bir sentner jun 85550 so'mga, go'sht tirik vaznda 94000 so'mga, bir dona shirdon 800 so'mga sotildi.

8-jadval

Xo'jalikda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi (so'm)

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2011	2012	2013
Qorako'l teri	dona	9110,2	13688,8	16018,5
jun (1s)	s	32365	40165	45074
go'sht (tirik vaznda)	s	101564	120885	175688

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xo'jalikda ishlab chiqarilgan 1 dona qorako'l terining tannarxi 2013 yilda 9110,2 so'm, 2012 yilda 13688,8 so'm bo'ldi. 2013 yilda esa bir dona qorako'lning tannarxi 16018,5 so'mni tashkil qildi.

2013 yilda xo'jalikda jun va go'sht ishlab chiqarish uchun bo'lgan harajatlar 1 s jun uchun 45074 so'mni, 1 s go'sht uchun 175688 so'mni tashkil qildi. Xo'jalikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxning yildan-yilga ko'tarilishiga sabab yoqilg'i mahsulotlarining bahosining narxining oshganligi bilan izohlash mumkin.

III. Tanlangan mavzu buyicha muammolarning qo'yilishi, qo'llanilgan uslublar.

Respublikamiz qorako'lchiligi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, cho'l va yarim cho'l yaylovlarining og'ir sharoitida yaratilgan bu qo'ylar o'zining mustahkam konstitutsiyasi, ekstremal cho'l sharoitiga yuqori darajada moslasha olishi va bu xil sharoitda sifatli mahsulot berishi hamda iqtisodiy jihatdan samaradorligi bilan boshqa turdagi hayvonlardan ustun turishi bilan farqlanadi.

Ma'lumki, organizmning rivojlanishi miqdor va sifat o'zgarishlaridan tashkil topadi. Organizmning rivojlanish jarayonida yuz beradigan miqdor o'zgarishlari tabaqalanish deb ataladi.

Qorako'l qo'ylarining tirik vazni muhim xo'jalik va biologik ahamiyatiga ega. Gavdasi yirik hayvonlar o'z tanasida ko'proq tuyimli moddalar yig'ishga qodir va odatda shu hisobidan boshqalarga nisbatan hayotchanligini ng yaxshiligi bilan farqlanadi.

Homilaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi barcha omillar, uning vazniga ham ta'sir ko'rsatadi. Qorako'lchilikda bu masala juda muhim o'rin egallaydi, chunki qo'zilarining turli xil tirik vazni turli tuman qorako'l terilarni shakllantiradi. Qo'zilarining tirik og'irligi – bu asosiy mahsuldorlik ko'rsatkichlarining biridir, ya'ni qo'zi qancha katta va og'ir tug'ilsa, u shuncha tashqi muhit ta'siriga chidamli bo'ladi, tez o'sadi va kasal bo'lmaydi.

Qo'zilarining tirik og'irligi bir qancha sabablarga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin. Bular jumlasiga qo'ylarning zoti, yoshi, jinsi, konstitutsiyasi, urchitish tumani, qo'zining ona qornida rivojlanishi, soni, sovliqning anatomik fiziologik holati va boshqa omillar kiradi.

SHuning uchun men tirik og'irligi xar xil bo'lgan sur qorako'l qo'zilarining qo'yidagi sifat ko'rsatkichlarini o'rgandim.

1. Jun tolasi uzunligi.
2. Qo'zilarining konstitutsiya tipi
3. Jun qoplami yaltiroqligi.
4. Jun qoplami ipaksimonligi

5. Sur rangining ifodalanishi
6. Sur rangining o'tish keskinligi - kontrastligi
7. Sur rangining tekis tarqalishi.
8. Barra tipi.
9. Qo'zilar sinfi
10. Tajribaning iqtisodiy samaradorligi.

Tadqiqotlar Navoiy viloyatining Konimex tumani Saribel qorako'lchilik naslchilik shirkat xo'jaligida o'stirishga koldirilgan tirik og'irligi har xil (3,5-3,9 mayda, 4,0-4,4 o'rta va 4,5 kilogrammdan yuqori katta o'lchamdagi) bo'lgan kumush sur rang-baranglikdagi urg'ochi qorako'l qo'zilarida o'tkazildi. Tajribadagi qorako'l qo'zilarining sifat ko'rsatkichlari organoliptik, qo'zilarining tirik og'irligi tarozi yordamida, qo'zilarining jun tolasini uzunligi temir o'lchagich yordamida orqa qirrasida va dumg'ozasida o'lchandi. Qo'zilarni baxolash qorako'lchilikda naslchilik ishini yurgizish (bonitirovka qilish) qo'llanmasiga binoan baholandi (Toshkent 2000 yil). Olingan ma'lumotlar biometriyaning variatsion usulida tahlil qilindi. Bitiruv malakaviy ishini bajarish mobaynida xo'jalikning tarixi, yaylov va tabiiy iqlim sharoitini o'rgandim, iqtisodiy faoliyatini tahlil qildim, ekologik masalaning yoritilishi va mehnatni muhofaza qilish chora ta'dbirlarini o'rgandim.

IV. Tanlangan mavzuning echimi va yoritilishi

4.1. Tirik og'irligi har xil bo'lgan sur qorako'l qo'zilarining jun tolasining uzunligi.

Qorako'l qo'zilar jun tolasining uzunligi terilarining tovar xususiyatlarini baholashda muhim belgi hisoblanadi. Qorako'l terilaridagi turli gul tiplari va shakllarining jun tola uzunligi har xil bo'ladi. Jun tolasining uzunligi terilarda 7-11 mm uzunlikga ega bo'lishi avlodlar va mahsulot sifatining yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi.

S.Yu.Yusupov (2010), fikricha jun tola uzunligini faqat seleksiya yo'li bilan boshqarish mumkin. M.A. Ombaev (2008) ushbu belgining nasliy belgi ekanligining ta'kidlash bilan bir qatorda, uning oziqlantirish sharoitiga bog'liq holda sezilarli o'zgaruvchanlikka ega bo'lishini qayd etgan.

S.Yu.Yusupov (2010), S.R.Bozorovlar (2013) jun tolasining qo'zilar tug'ilgan paytidagi uzunligi ularning Tirik og'irligi va rangi bilan ma'lum darajada bog'liqlikda bo'lishini kuzatganlar. Bizning tajribamizda olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilmoqda.

9-jadval

Jun tolasini uzunligi, mm

Qo'zilar katta kichikligi	Olingan qo'zilar soni	Dumg'azasida			Orqa qirrasida		
		M±m	g	S, %	M±m	g	S, %
Mayda	46	10,74±0,13	1,14	15,5	11,93±0,12	1,3	13,3
O'rta	154	11,33±0,17	1,15	11,7	12,42±0,13	1,1	12,3
Katta	65	13,88±0,15	1,14	14,4	14,99±0,14	1,4	12,5

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jun tolasining uzunligi mayda o'lchamdagi qorako'l qo'zilarida dumg'azasida kaltaroq bo'lib, 10,74 mm ni, orqa qirrasida 11,93 mm ni tashkil qildi, ushbu ko'rsatkich katta o'lchamdagi qorako'l qo'zilarida uzun bo'ldi va dumg'azasida 13,88 mm ni, orqa qirrasida esa 14,99 mm ni tashkil qildi. O'rta o'lchamdagi qo'zilar oraliq o'rinni egallashdi va dumg'azasida 11,33 mm ni, orqa qirrasida esa 12,42 mm ni tashkil

qildi. Demak qo'zilarining tirik og'irligi bilan jun tolasi uzunligi o'rtasida aloqadorlik mavjud ekan.

4.2. Qorako'l qo'zilarining konstitutsiya tiplari

Qorako'lchilikda qo'ylarni va qo'zilarining konstitutsiya tiplarini hisobga olish katta ahamiyatga ega. Qorako'l qo'zilarining konstitutsiya tiplari-bu asosiy belgilaridan biri bulib ushbu belgi ko'p jihatdan qo'ylarning sog'ligini, hayotchanligini, cho'l ekstremal sharoitiga moslanishini va mahsuldorligini belgilovchi ko'rsatkich hisoblanadi. Qorako'l qo'zilar tug'ilganida qay darajada rivojlanganligiga, konstitutsiyasiga qarab baholanadi va 3 guruhga bo'linadi.

Qorako'l qo'zilarining mustahkam konstitutsiya tipi – bunday qo'zilar rivojlanishi me'yorida, tirik vazni 4-4,5 kg keladigan, suyaklari baquvvat, normal, tana tuzilishi mutanosib, terisi yupqa, tiniq, jun qoplami ipaksimon, o'rta yaltiroq, jingalaklarning maydaligi o'rtacha, tana ikkinchi darajali qismlarining jun bilan qoplanishi o'rtacha, terisining zapasi, yog' terligigi yaxshi va o'rtacha.

Qorako'l qo'zilarining qo'pol konstitutsiya tipi – bu qo'zilar yiik jussali, vazni 4-6 kg keladigan bo'ladi, suyaklari dag'al, boshi nisbatan kalta, keng juda do'ng qanshar, oyoqlari yo'g'on, gavdasi keng, vazmin, terisi qalin, pishiq yoki kamroq tiniq., bo'sh, juni aksari dag'al jingalaklari yiriklashgan, lekin o'rta o'lchamda bo'lishi ham mumkin, tana ikkinchi darajali qismlarining jun bilan qoplanishi siyrak.

Qorako'l qo'zilarining nozik konstitutsiya tipi – ushbu tipdagi qo'zilar mayda, vazni 3,5 kg gacha boradi, suyaklari ihcham, yoki yuz qismi hisobiga uzun tortilgan, tor, profili to'g'ri yoki sal botiq yupqa, jingalagi maydaroq, goho o'rtacha, tana ikkinchi darajali qismlarining jun bilan qoplanishi qalin, ba'zan biroz siyrakroq bo'ladi.

Hozirgi paytda zootexniyada, shu jumladan qorako'lchilikda P.N.Kuleshov va M.F.Ivanovlarning klassifikatsiyasi keng qo'llanilib, unga asosan dag'al, nozik, zich, bo'sh va mustahkam konstitutsiya tiplari ajratiladi.

Ba'zi bir olimlarning ta'kidlashlaricha, sur qo'ylar qora rangli qo'ylarga nisbatan konstitutsional jihatdan zaifroq bo'lib, ularni oziqlantirish va asrashga alohida e'tibor berish lozim.

M.J.Zokirov, S.YU.YUusupovlar (1992) esa konstitutsiya hayvonlarning mahsuldorligi ularning tashqi muhit ta'siriga javob reaksiyasiga qarab ifodalanadi deb ta'kidlaydilar.

S.R.Bozorov (1998), S.B.Sattorov, M.Egamkulov, S.R.Bozorov (2001) ta'kidlashicha mustahkam konstitutsiyali qo'ylarni juftlash 81 % shu tipdagi avlodlar olish imkonini beradi.

S.R.Bozorov (2001) S. YU.YUusupov (2010) va boshqalar konstitutsiya tiplarining ahamiyatiga katta e'tibor berib, bonitirovka paytida qo'zilar uchun ko'rsatkich bo'yicha ham baholash lozimligini aytib o'tgan.

10-jadval

Qo'zilar konstitutsiya tipi, %

Qo'zilar katta kichikligi	Qo'zilar soni	Nozik		Mustahkam		Qo'pol	
		n	%	n	%	n	%
Mayda	46	35	76,1	11	23,9	-	-
O'rta	154	10	6,5	130	84,4	14	9,1
Katta	65	-	-	14	21,5	51	78,5

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, o'rta o'lchamdagi qo'zilar mustahkam konstitutsiya tipidagi qo'zilar ko'p bo'lib 84,4 % ni tashkil qildi. Katta o'lchamdagi qo'zilar qo'pol konstitutsiya tipidagi qo'zilar ko'p bo'lib 78,5 % tashkil qildi. Mayda o'lchamdagi qorako'l qo'zilar esa nozik konstitutsiya tipidagilari ko'p bo'lib 76,1 % ni tashkil qildi. Tajriba natijalaridan aniqlandiki qorako'l qo'zilarining tirik og'irligi bilan konstitutsiya tipi o'rtasida alokadorlik bor ekan.

4.3. Tirik og'irligi har xil bo'lgan sur qorako'l qo'zilarning jun qoplaminig yaltiroqligi

Jun qoplaminig yaltiroqligi qorako'l zotiga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri bo'lib qo'zi teri sifatini belgilaydigan ko'rsatkich hisoblanadi. Qorako'l terilar jun qoplaminig yaltiroqlik darajasi tolalar tangachasimon qatlamining tuzilishiga, tolalarning gulda turish holatiga, ularning jingalaklanish darajasiga bog'liqdir. Tangachasimon qatlamning sirti silliq va tangachalari yirik, jingalaklarining soni kam va yoyi keng, tolalar gulga zich va silliq o'ralgan, jingalaklarning o'qi teri yuzasiga yotiq holda joylashgan bo'lsa. Gulning sirtidagi nur qaytaradigan maydoni ancha keng bo'ladi. Bunday holatda jun qoplaminig yuzasiga tushgan yorug'lik nuri sinib qaytadi va yaltiroqlikni kuchaytirishini ko'rsatadi.

Aksincha tangachasimon qatlamning sirti g'adir-budir, jingalaklarning uchi ochiq soni ko'p, yoyi kichik tolalar bo'sh to'zg'igan. CHigallashgan holda o'ralgan bo'lsa, gulning sirtidagi nur qaytaradigan maydoni kichik bo'ladi. Natijada terining yorug'lik nuri sinib qaytmasdan, tarqalib ketadi. Qorako'l terilar jun qoplaminig yaltiroqligi besh xil bo'ladi hamda kuchli yaltiroq, normal yaltiroq, yaltiroqligi etarli emas, shishasimon yaltiroq va xira kabi darajalarga bo'linadi. Jun qoplaminig yaltiroqligi etarli bo'lmagan va yaltiroqsiz qo'zilar ko'proq kavkaz barra tipida, jun qoplami shishasimon yaltiroqlikka ega bo'lgan qo'zilar qovurg'asimon barra tipida uchraydi.

11-jadval

Jun qoplami yaltiroqligi, %

Qo'zilar katta kichikligi	Olingan qo'zilar soni	Kuchli ipaksimon		Ipaksimon		Yaltiroq ligi etarsiz		SHishasimon yoki xira	
		n	%	n	%	n	%	n	%
Mayda	46	12	26,1	27	58,7	6	13,0	1	2,2
O'rta	154	48	31,2	88	57,1	16	10,4	2	1,3
Katta	65	19	29,3	37	56,9	8	12,3	1	1,5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, o'rta o'lchamdagi qo'zilar jun qoplami kuchli yaltiroq bo'lgan qo'zilar ko'p bo'lib 31,2 % tashkil qildi. Yaltiroqligi me'yorida bo'lgan qo'zilar uchta o'lchamdagi qo'zilar ham deyarli bir xil bo'ldi sezilarli farq qilmadm, jun qoplami yaltiroqligi etarsiz, shishasimon yoki xira yaltiroq bo'lgani oz bo'lsada mayda gul o'lchamdagi qo'zilar ko'p bo'lib 15,2 % ni tashkil qildi.

4.4. Tirik og'irligi har xil bo'lgan sur qorako'l qo'zilarining jun qoplami ipaksimonligi

Qorako'l terilar jun qoplaminig ipaksimonlik darajasi tolalarning turiga, ingichkaligiga, ko'ndalang kesimining shakliga, tangacha qatlamining tuzilishiga, rangiga, tolalarning uzunligi va o'sish tezligiga, egiluvchanligiga, tolalarning uzunlik va inchichkalik xususiyatlari bo'yicha bir tekisligiga bog'liq.

Ushbu ko'rsatkichlar muhim seleksion belgilar hisoblanib, ularning ifodalanish darajasiga qarab qo'zilaridan foydalanish yo'nalishini, mahsulotning sifati aniqlandi. Jun tola qoplaminig sifati past bo'lgan qo'zilar va qorako'l terilari gullarning qimmatligidan qat'iy nazar past baholanadi.

Qorako'l terilar jun qoplaminig ipaksimonlik darajasi qo'l bilan ushlab ko'rib aniqlanadi. Jun qoplaminig apaksimonlik darajasiga qarab barcha qorako'l terilar qo'yidagilarga bo'linadi:

1. Kuchli ipaksimon 2. Normal ipaksimon 3. Ipaksimonligi etarli emas 4. Dag'al yoki quruq ipaksimon.

Qorako'l terilar jun qoplaminig turli darajada ipaksimon bo'lishi turli sabablarga bog'liqdir. V.M.YUdin (1951) ipaksimonlik darajasining dag'al tomonga qarab og'ishi, ko'pincha qupol konstitutsiyadagi guli yiriklashgan qo'zilar va quruq tomonga og'ishi esa Maydaroq konstitutsiyadagi, guli maydaroq qo'zilar uchrashini ko'rsatadi.

S.E.SHaptakov (2006) qayd qilishlaricha jun qoplaminig ipaksimonligi va yaltiroqligi teriga ko'rk beradigan muhim xususiyatlardan biridir. Jaket, yassi va

qovurg'asimon terilarning birinchi navlariga faqatgina yaxshi ipaksimonlikka va yaltiroqlikka ega bo'lgan terilar kiritiladi. Kuchli va normal yaltiroqlik, o'ta va normal ipaksimonlik maqsadga muvofiq belgilar hisoblanadi. Dag'al ipaksimonlik etarli bo'lmagan, shuningdek etarli darajada yaltiroqlikka ega bo'lmagan terilar, ayniqsa junlari quruq va dag'al bo'lib, shishasimon yaltiroqlikka ega bo'lgan yoki yaltiroqsiz terilar maqsadga muvofiqdir.

12- jadval

Jun qoplami ipaksimonligi (%)

Qo'zilar katta kichikligi	Olingan qo'zilar soni	Kuchli ipaksimon		Ipaksimon		YAltiroq ligi etarsiz		Dag'al yoki quruq	
		n	%	n	%	n	%	n	%
Mayda	46	16	34,7	26	56,5	3	6,5	1	2,2
O'rta	154	48	31,2	90	58,4	14	9,1	2	1,3
Katta	65	20	30,8	35	53,8	9	13,7	1	1,5

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki mayda o'lchamdagi qo'zilarida jun qoplami kuchli ipaksimon bo'lgan qo'zilar nisbattan ko'p bo'lib 34,7 % tashkil qildi. Jun qoplami ipaksimonligi me'yorida bo'lgan qo'zilar o'rta o'lchamdagi ko'proq bo'ldi 58,4 % ni tashkil qildi, jun qoplami etarsiz va dag'al yoki quruq ipaksimon bo'lgani katta o'lchamdagi qo'zilarida ko'p bo'lib 15,2 % tashkil qildi.

4.5. Tirik og'irligi har xil bo'lgan sur qorako'l qo'zilarida sur rangining ifodalanishi

Sur rangli qo'zilarida sur ranginipg ifodalanishini asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib hisoblanadi va nasldan naslga o'tuvchi belgi hisoblanadi, shuningdek bu ko'rsatkich tashqi muhit ta'siriga ham bog'liqdir, asosan bu yaylov sharoitidir. Surlik darajasi qancha yaxshi ifodalansa terini qiymati shuncha qimmatli hisoblanadi. Qorako'l qo'zilarida sur rangi tola uzunligi bo'yicha pigment moddasining notekis taqsimlanishi natijasida hosil bo'ladi.

Bundapigment tola asosida ko'prok, tarqalib unga to'q, rang, uchki qismida esa kamaya borib, har xil och rang-baranglik beradi.

Surlik darajasi deb, jun tolasining ostki qismining to'q bo'lishi va uchiga qarab oqarib borishiga va bu qismlarning bir-biriga bo'lgan nisbatiga aytiladi. Naslchilik ishini yuritishda, bu ko'rsatkichga katta e'tibor berilishi kerak, agarda bu ko'rsatkich yaxshi ifodalangan bo'lmasa qo'chqorchalar va qo'zilar foydalanish uchun qoldirilmaydi, klassi past bo'ladi.

Bu belgining kuchli darajada ifodalapishi qo'zilarining naslini belgilash, qorako'l terilariping tovar qimmatligini baholashda muhim va birinchi darajali seleksion ahamiyat kasb etadi. Surlik rangining ifodalanishi a'lo, yaxshi va qoniqarsiz kabi darajalarga bo'linadi, shuning uchun terida bu ko'rsatkich qancha a'lo va yaxshi ifodalanmasa maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tajribamizda olingan natijalar qo'yidagi jadvalda keltirilgan.

13-jadval

Sur rangining ifodalanishi (%)

Qo'zilar katta kichikligi	Qo'zilar soni	A'lo		Yaxshi		Qoniqarsiz	
		n	%	n	%	n	%
Mayda	46	16	34,8	26	56,5	4	8,7
O'rta	154	53	34,4	87	56,5	14	9,1
Katta	65	23	35,4	37	56,9	5	7,7

Sur rangining ifodalanishi qo'zilarining tirik og'irligi bilan aloqadorligi sezilmadi va o'zaro uncha farq qilmadi, katta o'lchamdagi qo'zilarida a'lo darajada ifodalangani 35,4 % ni tashkil etdi. SHuningdek katta o'lchamdagi qo'zilarida sur rangining ifodalanishi qoniqarsiz bo'lgani nisbatan kamroq bo'ldi 7,7 foizini tashkil qildi. Tirik og'irligi mayda o'lchamdagi qorako'l qo'zilar oraliq o'rinni egallashdi.

4.6. Tirik og'irligi har xil bo'lgan sur qorako'l qo'zilarida sur rangining kontrastligi

Sur rangli qorako'l qo'zilarining terilarida sur rangining o'tish keskinligi (kontrastligi) juda muhim seleksion ko'rsatkich bo'lib u jun tolasining ostki to'k qismidan uchidagi och qismiga keskin o'tishiga aytiladi. Ushbu ko'rsatkich nasldan-naslga beriluvchi belgi bo'lib, qo'chqor va sovliqning nasliy qiymatini belgilaydi, shuningdek bu ko'rsatkich tashqi muhit ta'siri bilan ham sezilarli darajada bog'liqligi mavjuddir.

Qorako'l qo'ylari o'zining rang-barangligi bilan boshqa zot qo'ylardan keskin ajralib turadi. Bu rang zot ichidagi ranglarning eng chiroylisi va go'zali, shuningdek nasldan-naslga o'tishda o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa ranglardan farq qiladigan rang hisoblanadi. Sur rangida tolaning to'q asos qismidan oqargan uchki qismiga o'tish keskinligi muhim seleksion belgilardan biri hisoblanadi. Bu ko'rsatkich o'tish keskinligiga qarab keskin, me'yorli va past guruhlarga ajratiladi.

Sur rangi jun tolasining pigmentlanish darajasining har xil bo'lishidan hosil bo'ladi, ya'ni ostki qismi to'k bo'lib, uchiga qarab och tusga o'tib boradi. Sur rangli qo'ylarni tanlash va saralashda asosiy e'tibor beriladigan belgilar, sur rangining ifodalanishi, kontrastligi, tekis tarqalishi va surlik darajasi hisoblanadi. Agarda ushbu ko'rsatkichlarning birontasi past darajada namoyon bo'lsa yoki qoniqarsiz bo'lsa, bunday qo'zilar nasllik mollar sifatida kelajakda foydalanish uchun qoldirib bo'lmaydi. Sur rangli qo'ylar ichida o'zining rangining kontrastligi bilan Qoraqalpoq va Surxandaryo zot tipidagi sur qo'ylarda yaxshi namoyon bo'ladi. Buxoro zot tipidagi sur qo'ylarning olmos va kumush rang-barangliklarida ushbu ko'rsatkich yaxshi namoyon bo'ladi. Shuning uchun qorako'lchilikda naslchilik ishini to'g'ri yo'lga qo'yishda ushbu ko'rsatkichlarga juda katta e'tibor berish kerak.

Sur rangining o'tish keskinligi-kontrastligi

Qo'zilar katta kichikligi	Qo'zilar soni	A'lo		Yaxshi		Qoniqarsiz	
		n	%	n	%	n	%
Mayda	46	14	30,4	28	60,9	4	8,7
O'rta	154	46	29,9	93	60,4	15	9,7
Katta	65	21	32,3	37	56,9	7	10,8

Sur rangining o'tish keskinligi-kontrastligi o'rta o'lchamdagi qo'zilarida yaxshi ifodalangan bo'lib, a'lo darajada bo'lgani 37,7 % ni tashkil qiladi. Katta gul o'lchamdagi qorako'l qo'zilarida sur rangining o'tish keskinligi-kontrastligi qoniqarsiz bo'lganlari nisbatan ko'proq bo'ldi va 9,7 foizini tashkil qildi. Mayda o'lchamdagi qorako'l qo'zilar oraliq o'rinni egallashdi 8,7 % ni tashkil qildi.

4.7. Tirik og'irligi har xil bo'lgan sur qorako'l qo'zilarida sur rangining tekisligi

Sur rangining tekisligi muhim belgilardan biri bulib rang va rang-barangliklarni teri sathi bo'yicha tekisligidir. Rangining tekisligi o'tish keskinligi va namoyonligi sifati gullar bilan birga qo'zilarining seleksion, terilarning tovar xususiyatlarini keskin oshiradi.

S.YU YUsupov (2010) surlikning namoyon bo'lish darajasi muhim seleksion belgilari hisoblangan bo'lib gullarning tipi va shakllari eni, jun toolalarining uzunligiga bog'liqligini ta'kidlaganlar. V.S.Jilyakova (1978, 1981) fikricha rang sifatiy belgi hisoblanib avloddan-avlodga ma'lum bir genetik qoniniyatlar asosida beriladi.

V.S.Jilyakova (1981) ma'lumotlariga ko'ra ushbu belgi nasliy ko'rsatkich hisoblanib, shu bilan bir qatorda uning ifodalanishiga oziqlantirish sharoiti ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha bug'ozlikning oxirgi davrlarida qo'ylarni etarsiz oziqlantirish tolaning rangsizlangan qismini uzayishini, bu esa o'z navbatida rang keskinligi va ifodalanishining kuchayishini ta'minlaydi. Muallifning ta'kidlashicha sur rangi bo'yicha qonlilik darajasining ortishi ushbu

belgining kuchayishini ta'minlaydi. Muallif yana ta'kidlaydiki, rangsizlangan qismning tolaning umumiy uzunligiga nisbatan $3/10$ va $4/10$ nisbatda bo'lishi maqsadga muvofiq ko'rsatkich hisoblanadi, lekin har bir rang-baranglik va gul tipi o'ziga uchki rangsizlangan qismining uzunligi xos.

N.S.Gigineyshvili (1978), N.R.Xidirov (1983), S.YU.YUusupov (2009) S.B.Sattorov (2010) tadqiqotlarida sur rangining ifodalanishi, tekisligi, yassi va qovurg'asimon tiplarida kuchli namoyon bo'lishi kuzatilgan.

S.YU.YUusupov (2009), S.B.Sattorovlar (1998) ham $3/10$ va $4/10$ nisbatni maqsadga muvofiq ko'rsatkich deb, ta'kidlaydilar. Sur rangli qorako'l quylari selekstyasida jun tolasi rangsizlangan qismining uzunligi muhiim belgilardan hisoblanib, uning o'lchamlari surlikning namoyonlik darajasini belgilaydi. S.B.Sattorov (1998) o'z tajribalarida turli zavod tiplariga mansub sur qo'chqorlar avlodlarida ushbu rangning berilishi va yuqori darajada Nurota zavod tipida namoyon bo'lishini kuzatgan.

X.Tursunov (2007) tadqiqotlarda tillasimon sur qorako'l terilarining 26,6 foizi tola oqargan qismining kuchsiz rivojlanishiga, siren surining 100,0 kumushsimon surining 93,3 foizi $3/10$ va $5/10$ nisbatdagi rangsizlangan qismga ega bo'lishini aniqlangan.

15- jadval

Rang-baranglikning tekis tarqalishi (%)

Qo'zilar katta kichikligi	Qo'zilar soni	A'lo		Yaxshi		Qoniqarsiz	
		n	%	n	%	n	%
Mayda	46	15	32,6	26	56,5	5	10,9
O'rta	154	49	31,8	88	57,2	17	11,0
Katta	65	20	30,8	37	56,9	8	12,3

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qo'zilarining tirik og'irligi bilan rang baranglikning tekis tarqalishi orasida bog'liqlik kuzatilmadi. SHunday bo'lsada mayda qo'zilarida sur rangining tekisligi a'lo darajada

ifodalangani 32,6 % ni tashkil qildi. Sur rangining tekis tarqalishi qoniqarsiz ifodalangani katta qo‘zilarda ko‘p bo‘lib 12,3 % tashkil qildi.

5.8. Tirik og‘irligi har xil bo‘lgan sur qorako‘l qo‘zilarning barra tipi

Qorako‘l qo‘zilarining terisi hammasi qalami gullarning turi va shakliga qarab qo‘yidagi barra tiplarga bo‘linadi:

Yarim doira qalami gulli barra tipi (jaket barra tipi) terisida uzun, o‘rtacha, kalta qalami gullar va loviyagullar bo‘lishi, terisining yupqaligi va tiniqligi, o‘rtacha uzunlikdagi jun qoplamining ipakdek muloyim va yaltirab turishi, jingalaklarning ancha pishiq va jilodor bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bu tipdagi qo‘zilarning ko‘pchiligi yaxshi rivojlangan, baquvvat konstitutsiyali, teri zonasi yaxshi va yog‘-teriligi ko‘p bo‘ladi. Jingalagining ochilish tomoni boshiga qarab turadi. Uzun yarimdoira qalamigulli qo‘zilar qorako‘l zot qo‘ylarda eng maqsadga muvofiq hisoblanadigan tipdir.

Yassi barra tipi jingalakli qorako‘l tipi yolgullar va loslar bilan aralash joylashgan uzun va o‘rtacha uzunlikdagi yassi qalamigullari bilan xarakterlanadi, nihoyatda ipaksimon va juda yaltiroq bo‘ladi. Jun qoplami kalta tortgan, terisi yupqa va tiniq. Terisining sifati “YAssi yupqa 1” navi talablariga javob bera oladigan qo‘zilar qimmatli hisoblanadi.

Qovurg‘asimon barra tipi jingalakli qorako‘l tipi terisining asosiy qismida uzun yolgullar qovurg‘asimon qalamigullar aralash bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Jun qoplami kalta, ipaksimon va yaltiroq, terisi yupqa, tiniq. Terisida chiroyli naqsh hosil qiluvchi uzun qovurg‘asimon qalamigullar, tor va o‘rta o‘lchamdagi yolgullar va loslar bo‘ladigan barrasi “Qovurg‘asimon yupqa 1” navi talablariga javob bera oladigan qo‘zilar qimmatli hisoblanadi.

Kavkaz barra tipi jun qoplami o‘siq qorako‘l tipi, terisining asosiy qismida bo‘sh va eni har xil keladigan loviyasimon jingalaklar hamda kalta qalamigullar ko‘p bo‘lishi bilan xarakterlanadi, bunday qo‘zilar aksari bo‘sh va dag‘al konstitutsiyali bo‘ladi. Ularning terisi qalin, bo‘sh, qiymati past qorako‘l teri navlariga kiradi .

Barra tipi, %

Qo'zilar katta kichikligi	Olingan qo'zilar soni	Jaket		Yassi		Qovurg'asimon		Kavkaz	
		n	%	n	%	n	%	n	%
Mayda	46	18	39,1	14	30,4	5	10,9	9	19,6
O'rta	154	45	29,2	50	32,5	27	17,5	32	20,8
Katta	65	17	26,1	20	30,8	13	20,0	15	23,1

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yassi barra tipidagi qo'zilar o'rta o'lchamdagi qo'zilar ko'p bo'lib 32,5 % ni tashkil qildi. Jacket barra tipidagi qo'zilar mayda o'lchamdagi qo'zilar ko'p bo'lib 39,1 % ni tashkil qildi. Qovurg'asimon barra tipidagi qo'zilar katta o'lchamdagi qo'zilar ko'p bo'lib 20,0 % ni tashkil qildi. SHuningdek kavkaz barra tipidagi qo'zilar ham katta o'lchamdagi qo'zilar ko'p bo'lib 23,1 % ni tashkil qildi. Demak qo'zilar katta kichikligi bilan barra tipi o'rtasida bog'liqlik mavjud ekan.

5.9. Har xil o'lchamdagi qorako'l qo'zilarining sinfi

Qorako'lchilikda seleksiya samaradalogini avlodlarida yuqori klassli qo'zilar qancha ko'p bo'lishi bilan baholanadi va ushbu ko'rsatkichch muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Sur rangli qo'zilar ham xuddi qora rangli qorako'l qo'zilar kabi to'liq va qisqartirilgan yakkama-yakka hamda klassli bonitirovka tartibiga muvofiq bonitirovka qilinadi, to'liq yakkama-yakka bonitirovka sur qo'zilarining kelib chiqishi, rang-barangligi, barra tipi gullarning o'lchami, shakli va turi, terisining qalinligi va pishiqligi, jun qoplami ipaksimonligi va yaltiroqligi, qo'zilarining konstitutsiya tipi va boshqa belgilariga qarab baholanadi.

SHuningdek, sur rangdagi qo'zilar baholashda sur rangining ifodalanishi, kontrastligiga, surlik darajasiga va sur rangining qo'zi tanasida tekis tarqalishiga katta ahamiyat beriladi, chunki bu belgilar nasldan-naslga o'tuvchi belgi hisoblanadi. Agarda bu ko'rsatkichlarning biron biri etaksiz ifodalangan bo'lsa, bu qo'zilar naslli sifatida foydalanish uchun qoldirilmaydi, aksincha teri uchun

soʻyiladi. Sur rangli qorakoʻl qoʻzilar ham elita, 1 klass, 2 klass va yaroqsiz kabi nasllarga boʻlinadi.

Shu munosabat bilan tadqiqotlarda avlodlarning snfini oʻrganish seleksiya natijasining va mahsuldorligini aniqlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

17-jadval

Qoʻzilar sinfi %

Qoʻzilar katta kichikligi	Olingan qoʻzilar soni	Elita		1 klass		2 klass		Yaroqsiz	
		n	%	n	%	n	%	n	%
Mayda	46	12	26,1	25	54,3	8	17,4	1	2,2
Oʻrta	154	48	31,2	74	48,0	30	19,5	2	1,3
Katta	65	20	30,8	30	46,2	14	23,1	1	1,5

Yuqoridagi jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, Elita sinfli qoʻzilar oʻrta va katt oʻlchamdagi qoʻzilarda koʻp boʻlib 31,2 30,2 % ni tashkil qildi. Katta oʻlchamdagi qoʻzilarda ikkinchi sinfli qoʻzilar koʻp boʻlib 23,1 % ni tashkil qildi. Mayda oʻlchamdagi qoʻzilarda birinchi sinfli qoʻzilar koʻp boʻlib 54,3 % ni tashkil qildi.

V . Tajribaning iqtisodiy samaradorligi.

Qorako'lchilikda ham hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalikning yoki korxonaning moliyaviy jihatdan mustahkam rivojlanishini barqaror turishi va ishlab chiqarish faoliyati davrida samaradorligining yuqori bo'lishi asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Haqiqiy qiymatli mollarning sharoitga moslashishi, hayotchanligi, yirikligi, genetik xususiyatlarida namoyon bo'lsa, asl qimmatlilik olinadigan mahsulotning yuqori bahosida suruv va tizim guruhlaridagi qo'chqorlarning nasliy jihatdan qimmatlilikida namoyon bo'ladi.

Qo'ylarning mahsuldorlik xususiyatlari o'rganish yo'nalishida olib borilgan tadqiqot natijalari iqtisodiy baholash, umuman olganda qorako'l teri, jun ishlab chiqarish, go'sht etishtirish yo'nalishlari bo'yicha liniya qo'chqorlaridan foydalanish yuqori samarali ekanligi ko'rinib turibdi. Qorako'lchilik xo'jaliklarida sifatli mahsulot ishlab chiqarish va mahsulotlar tannarxini pasaytirish hamda rentabellik darajasini ko'tarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda qorako'lchilik xo'jaliklariga ishlab chiqargan mahsulotlarni shartnoma asosida erkin sotishga ruxsat berilgan, shuning uchun xo'jalik terilari yuqori baholarga sotilsa bu esa kelajakda xo'jaliklarining iqtisodiy jihatdan yanada yuksalishiga sabab bo'ladi degan fikrdaman.

Men ushbu tajribamda Navoiy viloyati Konimex tumani Saribel naslchilik shirkat xo'jaligi sharoitida tirik og'irligi har xil bo'lgan qo'zilarining teri sifatini o'rgandim va tajribaning iqtisodiy samaradorligini hisobladim.

Tadqiqot natijalaridan olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki katta o'lchamdagi qorako'l qo'zilardan olingan terilar sath o'lchami katta bo'lganligi va qimmat sotilganligi tufayli rentabellik darajasi yuqori bo'ldi 68,2 % ni tashkil qildi. O'rta o'lchamdagi qo'zilar rentabellik darajasi ham yuqori bo'ldi 31,62 % ni tashkil qildi.

Tajrabaning iqtisodiy samaradorligi

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Qo'zilar katta kichikligi		
		Mayda	O'rta	Katta
Ishlab chiqilgan jami teri	dona	46	154	65
SHu jumladan				
1 nav	dona	40	134	55
2 nav	dona	5	18	9
3 nav	dona	1	2	1
1 dona terining tannarxi	so'm	17855	17855	17855
Jami tannarx	so'm	821330	2749670	1160575
1 dona terining sotilish narxi	so'm	18000	23500	30000
Jami sotilgan terining narxi	so'm	828000	3619000	1950000
Olingan foyda +	so'm	6670	869330	789425
Zarar -	so'm	-	-	-
Rentabellik darajasi %	%	0,81	31,62	68,02

VI. Ekologik muammolar, hayot faoliyati xafsizligi masalalari.

Tabiiy va sun'iy radioaktivlik

Tabiiy holda uchraydigan radioaktivlik tabiiy radioaktivlik deyilib, u er yuzasidan atmosferaga radioaktiv elementlar (uran, radiy, toriy va boshqalar)ni tabiiy parchalanishi tu-fayli chiqishidan va kosmik nurlar zarrachalariniig havo tarkibidagi ximiyaviy elementlar atom yadrolari bilan o'zaro ta'sirning natijasidan vujudga keladi.

Sun'iy radioaktivlik foni so'nggi yillarda yadro qurollarini sinash, radioaktiv rudalarni qazish, tashish, ishlatishdagi ba'zi nuqsonlar; yadro yoqilg'isini qayta ishlovchi korxonalar, atom elektrostansiyalari va reaktorlari talofatga uchrashi va boshqalar ta'sirida ortib bormoqda.

Sun'iy radioaktivlikni ortib borishida ayniqsa yadro portlatishlar asosiy rol o'ynamoqda. YAdro qurollarini sinash tufayln radioaktiv moddalar erda, suvda, havoda to'planib undan o'simlik, hayvon va kishi organizmiga o'tib bormoqda.

Portlatish natijasida vujudga kelgan chang va boshqa radioaktiv moddalar atmosferaga ko'tarilib, portlash zonasiga yomg'ir tariqasida bir necha soat tushib tursa, mayda radioaktiv changlar havo oqimi bilan bir necha ming kilometr masofaga tarqalib, besh sutkagacha er yuzasiga tushib turadi. Juda mayda radioaktiv changlar esa troposferada uch oygacha, stratosferada 10 yilgacha saqlanib, er yuzasiga astasekin tushib turadi. Ma'lumotlarga ko'ra, yadro portlatishdan vujudga kelgan radioaktiv zarrachalarning 30-40 %i troposferaga, 60 %ga yaqini stratosferaga o'tar ekan. SHu sababli portlatish qaerda o'tkazilmasin, u atmosfera sirkulyasiyasi natijasida er yuzasining hamma qismiga tarqaladi. SHu kungacha yadro qurollaripi sinash oqibatida biosferada sun'iy radioaktivlik 4,5 %ga ko'paygan. Bu miqdor tirik organizm uchun xavfli bo'lmasada, lekin radioaktiv moddalar uzoq vaqt (stronsiy - 90, 25-27 yil; seziy — 137, 33 yil; uran — 233, 16-10⁵ yil) o'z xususiyatini o'zgartmay (parchalanmay) saqlanib turgach, radioaktiv moddalar tuproqda, suvda, havoda, o'simlik va

hayvonlar organizmida to'planib, geografik muhitni ifloslaydi. Buning ustiga yadro portlatishlar sodir bo'lgan rayonlarda radioaktivlik darajasi normadan oshib, o'sha joylardagi tirik organizmlarga salbiy ta'sir etmoqda.

Radioaktiv ifloslanish va uning biosferaga ta'siri

Er yuzasida radioaktiv ifloslanish uning hamma qismida bir xil emas. Bunga havo sirkulyasiyasi, o'simliklar qoplami va bir joyda yadro qurolining ko'plab portlatilishi sababchidir. Er shari mintaqalari ichida ekvatorial mintaqada radioaktiv ifloslanish kamroq. Chunki bu joylarda havo oqimining yuqoriga ko'tarilishi natijasida troposferadagi radioaktiv moddalar ekvatorial mintaqaterritoriyasiga kamroq tushadi. Subtropik mintaqada pastlashayotgan havo oqimi stratosferadan troposferaga radioaktiv moddalarni olib kelsada, lekin bu moddalar troposferada uzoq vaqt saqlanganligi sababli erga deyarli tushmaydi. O'rtacha kengliklarda havo yog'inlar bilan yuvilib, radioaktiv moddalar er yuzasiga ko'proq tushadi. Shunday qilib, Er sharida radioaktiv ifloslanish havodan o'rtacha kengliklarga ko'proq, ekvator, shimoliy va janubiy qutb doiralari ichiga kamroq tushadi. Shimoliy yarimshar Janubiy yarimsharga nisbatan radioaktiv moddalar bilan 4-5 marta ortiq ifloslangan. Bunga asosiy sabab shimoliy yarim-sharda ko'plab yadro qurollarining sinalishidir.

Er sharida radioaktiv moddalarning ko'p qismi okean va dengiz suvlarida to'planib qolgan. Bunga asosiy sabab havodan tushgan va daryo suvlaridan kelgan radioaktiv moddalarning yig'ilib qolishidir. Natijada, hozir okeanlar suvida radioaktiv moddalarni miqdori tabiiy radioaktivlik darajasidan 10% oshib ketgan. Radioaktiv moddalar ayniqsa okean suvlarining organik dunyosiga boy bo'lgan eng ustki, 200-300 m chuqurlik-kacha bo'lgan qavatida ko'p to'plangan. Okeanlar ichida Tinch okean suvlari Atlantika okeandga nisbatan 10 marta ortiq radioaktiv moddalar bilan ifloslangan. Bunga asosiy sabab tinch okeani havzasida yadro qurollarini ko'plab sinashdir.

Geografik muhitni radioaktiv ifloslanishida atom elektrostansiyalarning shikastlanishi, ulardan chiqayotgan chiqindilar, suvlar ham sababchidir. Chunki

hozir dunyo bo'yicha atom elektrostansiyalari juda ko'p bo'lib, har yili shulardan o'rtacha 40-45 tasida falokat yuz berib turadi, bundan 30-37 tasi AQSH zimmasiga to'g'ri keladi. SHu sababli materiklar ichida SHimoliy Amerika materigi radioaktiv moddalar bilan ko'proq ifloslangan.

Er yuzasida radioaktiv izotoplarning to'planishi ko'proq oziqa moddalari kam bo'lgan landshaft zonalarida sodir bo'ladi. SHu sababli oziqa moddalari kam bo'lgan tundradagi mox, lishaynikda va alp o'tloqlarida radioaktiv izotop to'planib qolib (akkumulyasiyalanib), undan hayvonlarga o'tadi. Bu esa so'nggi 10 yil ichida mox va lishayniklar bilan oziqlanuvchi shimol bug'usi organizmida radioaktiv moddalarning ko'proq to'planib qolishiga sababchi bo'ldi.

Atmosfera va er yuzasining radioaktiv moddalar bilan ifloslanishi biosferadagi hayot uchun jiddiy xavf vujudga keltirmoqda. CHunki o'z xususiyatini uzoq vaqt o'zgartmaydigan radioaktiv moddalar tirik organizm to'qimalarida to'plaiib, ularga salbiy ta'sir etmoqda. Ayrim plankton organiziida radioaktivlik suvdagi radioakgivlikka nisbatan 1000 marta, ba'zi o'sha planktonlar bilan oziqlanuvchi baliqlarda esa 50000 marta ko'pdir. Suvda suzib yuruvchi qushlar tuxumida radioaktivlik suvdagiga nisbatan 10 000 marta, baliq jigarida esa 300 000 marta ko'p to'plangan. SHu sababli hozir katta portlarda tutilgan baliqlar sinchkovlik bilan tekshirishlardan o'tkaziladi, radioaktivlik normadan ortiq bo'lsa yaroqsiz hisoblanadi.

Radioaktiv ifloslanish ayniqsa kishi organnzmiga salbiy ta'sir etadi. Faqat 1945 yili 6 va 9 avgustda YAponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga tashlangan AQSHning atom bombasidan 440 000 kishi o'lgan va og'ir jarohatlangan.

Kishi organizmpga radioaktiv moddalar havodan, suvdan, oziqa moddalardan o'tib.ular organizmda neytrallashmasdan to'plana boradi. Natijadl kishi organizmi zaiflashib, rak, leykomiya (qon buzilishi) kabi kasalliklar kelib chiqadi, genetik apparatlar buziladi, ayniqsa homiladorlikning taraqqiyotiga putur etkazadi, kasallik avloddan-avlodga o'tib ketadi.

Suv bilan ta'minlovchi vositalarni o'rnatish va ishlatish jarayonida mehnat xavfsizligi

Qorako'lhilik xo'jaliklarining aksariyat qismi cho'l va dasht zonalarida joylashganligi uchun ularning suvga bo'lgan ehtiyoji asosan er osti suvlari hisobiga qondiriladi.

Ma'lumki, cho'l va dasht sharoitida yillik yog'ining asosiy qismi, qish va bahor fasllariga to'g'ri kelib, bu fasllarda havo harorati nisbatan past bo'lish oqibatida qishloq xo'jalik hayvonlarining suvga bo'lgan ehtiyoji uncha katta bo'lmaydi. Qishloq xo'jalik hayvonlari bu paytda o'z chanqog'ini asosan yaylovlardagi ko'k o'tlar hisobiga, tog'oldi zonalarida qirlardan oqib keluvchi yog'ingarchilik va faoliyat ko'rsatuvchi buloqlar mahsuli bo'lgan oqar suvlar evaziga qondirsa, qum zonasida faqatgina er osti suvlari va sizot suvlari yig'iladigan "tangi"lar hisobiga qondiradi.

Ammo bahor faslining ikkinchi yarmiga kelib havo harorati ko'tariladi, yog'ingarchilik keskin kamayadi, buloqlar faolligi pasayadi, yaylovlardagi ko'k o'tlar qovjirab qoladi. SHu sababli ham qo'yu – qo'zilarining suvga bo'lgan talabi keskin oshib ketadi va bu talab asosan er osti suvlari evaziga qondiriladi.

Qorako'lhilik xo'jaliklarida er osti suvlari quduqlar orqali tortib olishda lentali suv ko'taruvchi qurilmalar (ZID – 4,5) K, V, VS tipidagi suv ichiga o'rnatiladigan markazdan qochma nasoslar va shu kabi boshqa vositalardan keng foydalaniladi.

Qorako'lhilik xo'jaliklarining markazini, bo'lim va ferma markazlarini suv bilan ta'minlash maqsadida suv bosimi hosil qiladigan minoralar quriladi. Ishlab chiqarishni sanoat negizida tashkil qilgan xo'jaliklar, qo'ylarni semirtirish va qorako'lcha olishga ixtisoslashgan sanoat komplekslarida qo'ylarni sug'orish uchun bir joyda yoki ko'chib yuruvchi avtosug'orgichlardan foydalaniladi.

Lentali suv ko'taruvchi qurilmalarni (nasoslarni) ishlatishda qo'yidagi xavfsizlik choralari ko'rilishi lozim: qurilmaning xavfli qismlarini (ZID – 4,5 markali motor yoki elektr motori, quduq ichiga tashlab qo'yiladigan lentani taranglovchi moslama, posangi yuk bloki, qo'shib – ajratuvchi mufta) to'siq bilan bekitib o'rash, suv ko'taruvchi moslamani o'z vaqtida va talab darajasida

ko'rikdan o'tkazib, qarab turish, elektr motorning kishilar qo'li tegadigan qismlarini sim bilan erga ulash.

Suv ko'taruvchi qurilma (nasos) ni ishlatish oldidan undan foydalanuvchi kishilar uchun o'sha erning o'zida instruktaaj o'tkaziladi, uning motori ishga tayyorlanadi. SHundan so'ng uning suv ko'taruvchi qismi tekshiriladi, ya'ni korpusining qopqog'i ochilib, undagi barabanni qo'l bilan aylantirib qurish va bunda u erkin, bemalol aylanishiga ishonch hosil qilish lozim. So'ngra suv ko'taruvchi tasmasimon lentaning va suvga tushurilgan taranglovchi moslamaning sozligi tekshiriladi.

Suv ko'taruvchi qurilma (nasos)ning sozligiga to'liq ishonch hosil qilingach uni ishga tushiriladi. Qurilmaning ishlash jarayonida tasmali lentaning etaklovchi barabanga va korpus cho'ntaklariga to'g'ri va ixcham joylashishiga hamda qurilma qismlarining mahkam bekitilganligiga katta e'tibor berilishi lozim. Har oyda bir marta suv ko'taruvchi rementning ulangan joyidagi chokning holati, joylarda boltlarning mahkam bekitilganligi ko'zdan kechiriladi, vaqti – vaqti bilan sharikli podshipniklar moylanib turiladi. Agarda suv ko'taruvchi qurilma (nasos) faqat ma'lum bir quduqda faoliyat ko'rsatsa, u holda chuqurlikka, ya'ni suv ichiga tashlab qo'yiluvchi remenni taranglovchi moslamasi yiliga ikki marta yuqoriga ko'tarib olinib, uning sozligi, umumiy holati ko'zdan kechiriladi. Albatta, qurilma (nasos)ning ish jarayoniga quduq tubida yot predmetlar bo'lmasligi lozim, chunki ularning bo'lishi qurilma (nasos) faoliyatini izdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Suv ko'taruvchi qurilma (nasos) ishlab turgan paytda uni sozlash, buzuvchi qismlarini almashtirish qat'iyan man qilinadi, buzuvchi aniqlanib, uni sozlash lozim topilgan taqdirda qurilma (nasos) motori albatta uchirilishi lozim.

Xo'jaliklar, bo'limlar, fermalar markazlarini, qo'ychilik komplekslarini suv bilan ta'minlashda foydalaniladigan nasos va boshqa jihozlar qatorida suv bosimini o'lchaydigan asboblari (monometrlar) hamda yong'in o'chiruvchi vositalari ham bo'lishi shart. Ishga tushirilish oldidan, sozlab tuzatilgandan so'ng yoki teskari klapani iflosliklardan tozalagandan so'ng markazdan qochma nasoslar silindriga suv solishga ixtisoslashtirilgan moslamalar bilan jixozlangan bo'lishi kerak.

Suvni haydab beruvchi qurilmalar sozligi tekshirilgandan keyingina o'rnatiladi. SHaxta quduqlarga suv tortuvchi quvurlar o'rnatishda yuk ko'taruvchi chig'irlar yoki oyoqlarga o'rnatilgan yuk ko'taruvchi boshqa jihozlardan foydalaniladi. Bu uskunalar ishlatilganda yuk ko'taruvchi sim – arqonlarini qo'l bilan ushlab turish qat'iyman etiladi, aks holda simarqon bilan qo'l ham chig'irlarga o'ralib ketib, jarohatlanishi mumkin. Simarqonlar bilan quvurlarni bog'lab ko'tarish yoki tushirish paytida uni uzoq muddat mobaynida ko'tarib turishman qilinadi, chunki sim arqon quvur sirti bo'ylab sirpanishi oqibatida u tushib ketishi mumkin. SHu maqsad yo'lida bir tomonlama yoki ikki tomonlama boltlar bilan qisiladigan tilim – tilim po'latdan yasalgan maxsus taxtasimon qisqichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Nasos stansiyalarining barcha elektr uskunalari yaxshilab to'silgan va sim bilan erga ulangan bo'lishi lozim.

SHaxtali quduqlarni ko'zdan kechirish yoki tuzatish oldidan unda nafasni bug'uvchi gazlar yo'qligiga ishonch hosil qilish kerak. Buning uchun quduqqa yoqilgan mash'ala yoki chiroq osib tushiriladi, agarda mash'ala yoki chiroq quduq tubida uchmasa unda zararli gazlar yo'qligini va kishilar tushib ishlayverishlari mumkinligini bildiradi. Arqonning bir uchi yuqoridagi kishi tomonidan ushlab turiladi, ikkinchi uchi esa maxsus tasma bilan ishchining beliga bog'lanadi. SHundan so'ngina ishchi quduq tubiga tushib ishlashi mumkin. Quduq tubida ishlayotgan kishining yuqoriga bergan birinchi signali bilanoq, u darhol yuqoriga tortib chiqarilishi kerak. SHaxtali quduqlarning og'zi to'siqlar bilan yaxshilab o'ralishi shart. Agarda quduq ma'lum sabablarga ko'ra foydalanishga yaroqsiz (suvning sifatsizligi, iflosligi va boshqa sabablar) deb topilsa, uning og'zi yaxshilab bekitilib, ogohlantiriluvchi belgi qo'yiladi.

15 – 25 m³ xajmidagi suv bosimi hosil qiladigan minerallar baland poydevorlar ustiga o'rnatilib, anker boltlar bilan bekitiladi. Suv minoralarini ko'tarib, poydevor ustiga o'rnatishda 5 t.gacha yuk ko'tariladigan avtomobil kranidan yoki lebedkali bo'lgan gusinitkali traktordan foydalanish mumkin.

Minorani ko'tarish oldidan, avvalo uni erda yig'ib, boltlar bilan bekitilgan barcha qismlari qaytadan mahkamlanib chiqiladi. So'ngra minorani ko'tarishga kerak bo'ladigan uskunalar, moslamalar tayyorlanadi. Minorani ko'tarishda foydalanish ko'zda tutilgan barcha mexanizmlar avvalo minora og'irligiga nisbatan 25 protsent ko'proq og'irlikni ko'tara olishini sina, ishonch hosil qilish lozim. Agarda minorani ko'taradigan sim arqonning 2 metr uzunligida 10 protsent miqdorida uzilgan simchalar borligi aniqlansa u yaroqsizga chiqariladi. Ko'taruvchi mexanizm ilmog'i eng pastga tushirilganda ham o'rovchi chig'irida kami bilan 3 – 5 o'ram sim arqon ortib qolishi lozim.

Suv minorani ko'tarish uchun oddiy tros yoki arqon tugunlaridan foydalanmasdan, balki faqatgina maxsus ilgak, sirtmoq va bog'ichlardan foydalaniladi.

Suv minorasi o'rnatiladigan maydoncha tekislanib, yot narsalardan tozalangan bo'lishi shart. Suv minorani ko'tarish, poydevor ustiga o'rnatish jarayonlari faqatgina ana shu ish uchun mas'ul shaxs imo – ishoralariga mos ravishda olib boriladi. Bu joyga yot kishilar qo'yilmaydi. SHuningdek ko'tarilgan yuk tagida ham kishilarning bo'lishi qat'iy taqiqlanadi.

Suv minorani traktor yordamida ko'tarish ikki bosqichdan iborat bo'ladi. Avvalo, suv minorani 3,5 metrdan kam bo'lmagan balandlikdagi chorpoyalarga chiqariladi va tikka qilib joylashtiriladi. Cnig'irdagi sim arqon kami bilan 1,5 t. kuch bilan tortilishi lozim. Bunda suv minora chap yoki o'ng tomonga og'ib ketmasdan, to'g'ri yuqoriga ko'tarilishi uchun traktor to'g'ri chiziq bo'ylab oldinga qarab harakat qilishi lozim. Agarda ko'tarilish jarayonida suv minora chap yoki o'ng tomonga qarab og'ib ketsa, u darhol chorpoya ustiga qaytarilib tushiriladi va og'ib ketish sabablari aniqlanib kamchiliklar tuzatiladi. Suv minorani turli tomonlaridagi ilgaklar osilgan simarqonlar uzunliklarini uning ko'tarilgan holatda bir tartibga keltirib bo'lmaydi, shu sababli ham bu ish suv minorani ustiga tushirib amalga oshiriladi.

Suv minorani muallaq ko'tarilib poydevor ustiga silkitmasdan, asta – sekinlik bilan tushiriladi. Suv minorani ko'tarilgan holda muallaq turib qolishiga yo'l qo'yilmaydi.

Suv minoralar profilaktik kuzdan kechirilganda barcha elektr motorlar elektr tarmog'idan ajratilgan bo'lishi va elektrorubilniklarga "Elektr liniyasida kishilar ishlamoqda, liniyaga qo'shilmasin" degan yozuv osib qo'yilishi lozim.

VII. Xulosalar

1. Tirik og'irligi yuqori bo'lgan qorako'l qo'zilarning jun tolasi uzunligi dumg'azasi va orqa qirrasida uzun bo'ldi.
2. Mayda o'lchamdagi qo'zilardan nozik konstitutsiya tipidagi, o'rta o'lchamdagi qo'zilardan mustahkam konstitutsiya tipidagi, katta o'lchamdagi qo'zilardan qo'pol konstitutsiya tipidagi qo'zilar chiqimi ko'p bo'ldi.
3. Tirik og'irligi har xil bo'lishiga qaramasdan qo'zilarning jun qoplami kuchli ipaksimon va yaltiroqsimonligi bo'yicha deyarli bir natija olindi.
4. Tirik og'irligidan qati'y nazar qorako'l qo'zilarda sur rangining ifodalanishi, kontrastligi va tekis tarqalishi kabi ko'rsatkichlari bo'yicha olingan natijalar deyarli bir xil bo'ldi..
5. Jaket barra tipdagi qo'zilar mayda o'lchamdagi, yassi gulli qo'zilar barcha o'lchamdagi qo'zilarda deyarli bir xil bo'ldi. Qovurg'asimon va kavkaz barra tipidagi qo'zilar esa katta o'lchamdagi qo'zilarda ko'p bo'ldi.
6. Elita sinfdagi qo'zilar o'rta va katta o'lchamdagi qo'zilarda ko'p bo'ldi. Birinchi sinfdagi qo'zilar mayda o'lchamdagi qo'zilarda ko'p bo'ldi. Ikkinchi sinf qo'zilar katta o'lchamdagi qo'zilarda ko'proq bo'ldi.
7. Tirik og'irligi yuqori bo'lgan katta o'lchamdagi qorako'l qo'zilarning teri sath o'lchami katta bo'lgani uchun qimmat sotildi va rentabellik darajasi yuqori bo'ldi.

VIII. Ishlab chiqarishga berilgan tavsiyalar

Navoiy viloyati Konimex tumani Saribel shirkat xo'jaligida bajarilgan "Tirik og'irligi har xil bo'lgan qo'zilarning teri sifatini o'rganish" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishidan olingan natijalarga tayanib quyidagilarni tavsiya qilaman

Xo'jalikda barqaror oziqa bazasini yaratib, mustahkam konstitutsiya tipli qo'ylar sonini ko'paytirish, ularning qochirim va homiladorlik davrida semizlik darajasi o'rta yoki yuqori bo'lishini ta'minlab ulardan tirik og'irligi yuqori bo'lgan qo'zilarni olishni va ushbu qo'zilarni nasl uchun ko'proq koldirishni xo'jalik mutaxassislariga taklif qilaman bu esa kelajakda xo'jalikning rentabellik darajasining yanada yuqori bo'lishini ta'minlaydi degan fikrdaman.

IX. Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Юксак манавият-енгилмас куч. Тошкент “Ўзбекистон” 2008 йил.
2. Каримов И.А. Жахон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. Тошкент “Ўзбекистон” 2009, 53б.
3. Каримов И.А. Бош мақсадимиз- кенг кўламли ислохатлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. 2012 йилда Мамлакатимизни ижтимоий- иқтисодий ривожлантириш якунлари ҳамда 2013 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устивор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республика Вазирлар Маҳкамасининг мажлисида қилган маърузаси. Тошкент. 2013 йил, 19 январ.
4. “Насилчилик тўғрисида”ги Давлат қонуни. Тошкент 1995 йил 21 декабр.
5. “Шахсий ёрдамчи, дехкон ва фермер хўжаликларида чорва молларини кўпайтиришни рағбатлантириш чора - тадбирлари тўғрисида” ги ЎЗР Президентининг ПК-308 сонли қарори. Тошкент. 2006 йил 23 март.
6. “Шахсий ёрдамчи, дехкон ва фермер хўжаликларида чорва молларини кўпайтиришни рағбатлантириш кучайтириш ҳамда чорвачилик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни кенгайтириш борасида қўшимча чора тадбирлар тўғрисида” ги ЎЗР Президентининг ПК - 842 сонли қарори. Тошкент 2008 йил 21 апрел.
7. Абдиазимов Ш.А. и др. –Особенности роста и развития каракульских ягнят черной и серой окраски в условиях Кызылкумов. В кн. «научно – технический прогресс в каракулеводстве». Сб. науч. Трудов КазНИИК, Кайнар, 1998, с. 71-74.
8. Абдурахмонов С. –Некоторые биологические особенности каракульский овец различных генераций. В сб. Селекция и условия разведения каракульских овец с вопросами воспроизводства. Сб. научных трудов ВНИИК, Ташкент, 2003, с. 14-21

- 9.Асанов А. – Влияние факторов кормления на половую потенцию каракульских баранов-производителей в условиях жаркого климата пустынь юга Казахстана. Международная научно-практическая конф. Молод, ученых аграриев. Шимкент, 2002, с.54
- 10.Ахметшиев А.С. – Селекция каракульских овец каракалпакского сура, изд. Кайнар, 1989, с. 100-105.
- 11.Baratov.P. Tabiatni muhofaza qilish. Toshkent O'qituvchi 1991.
- 12.Базаров С.Р. – Продуктивность и биологические особенности каракульских овец окраски сур разных типов конституции. Автореф. Канд. Дисс. Ташкент, 1990, с. 13-18.
- 13.Бобокулов Н.А. Этиология и влияние условия содержания на продуктивность ккаракулских овец, Зооветеринария журналы № 5 2005
- 14.Bobritskiy YU.I R.X.Ruzimuratov Qorako'lichilikda mehnat muhofazasi. Samarqand 1990.
- 15.Васин Б.Н. – Цветные каракульские овцы и особенности племенной работы с ними. Советская зоотехния, 1968, №11, 12, с. 79-87.
- 16.Васин Б.Н., Васина-Попова Е.Т. Руководство по каракулеводству. М., 1971, с. 318.
- 17.Газиев А. Селекционно-генетические аспекты эффективного использования потенциала каракульских овец в Узбекистане. Ж. «Животноводство, кормопроизводство и ветеринария». Алматы, № 2, 2007, с. 28-30.
- 18.Газиев А., Фазилов У. Т. Экологические особенности разведения каракульских овец в Узбекистане. Ж. «Животноводство, кормопроизводство и ветеринария». Алматы, 2007, № 1, с. 17-20.
- 19.Газиев А., Уроқбоев Й. Селекционные особенности каракульских овец черной окраски в условиях Кызылкум. Ж. Зооветеринария, № 11 2008, с. 35.
- 20.Григорьянц Р.И. – Каракульские овцы сур бухарский. Ж.: «Сельское хозяйство Узбекистана», 1958, №11, с.64-67.

- 21.Дьячков И.Н., Письменная Р.Т., Закиров М.Д. – Методика изучения качества каракуля. Тр. ВНИИИК, 1963, т. 13, с. 105-119.
- Дьячков И.Н., Искандаров М.А. – Изменения извитости и направления открытой стороны завитков в процессе обработки каракуля. Сб. научных трудов ВНИИИК, Карак-во, вып, 1, Ташкент, 1972, с. 183-191.
- 22.Дьячков И.Н., Воробьевский А. Характер наследования некоторых окрасок каракульских овец. Сб. Проблемы генетики в каракулеводстве. Алма-Ата, 1975, с. 130.
- 23.Дьячков И.Н. – Племенное дело в каракульском овцеводстве. Ташкент, Фан, 1980, с. 153.
- 24.Елемесов К.Е. – Теоретические основы и практические приемы повышение племенных и продуктивных качеств каракульских овец в Казахстане. Автореф.дисс.докт. с-х. наук. Алма-Ата, 1985, с. 38.
- 25.Жиякова В.С. – Выведение каракульских овец сур на основе разнородного по окраске спаривания. Тр. УзНИИЖ, вып., 2, Ташкент, 1957, 1957, с. 106-109.
- 26.Жиякова В.С. – Селекция цветных каракульских овец. Алма-Ата, 1981, с. 150.
- 27.Закиров М.Д., Юсупов С.Ю. – Каракулеводство. Ташкент «Мехнат», 1991, с. 230.
- 28.Закиров М.Д., Юсупов С.Ю. – Биология каракульской овцы. Ташкент, «Фан», 1992.
- 29.Иванов М.Ф. – Овцеводство. Смущковедение. М. Сельхозиздат, 1940, с. 159-215.
- 30.Котов М.И. – Качество смущков каракульских ягнят в связи с их живым весом при рождении. Ж.: Каракулеводство и звероводство, 1978, №1, с. 25-31.
- 31.Кулешов П.И. – Научные и практические основы подбора племенных животных в овцеводстве. М., 1890, с.407.
- 32.Qorako'l qo'zilarini baholash (bonitirovka qilish) buyicha qo'llanma. Toshkent 2000 yil.

33. Меркурьева Е.К. – Биометрия в селекции и генетике сельскохозяйственных животных. М. «Колос», 1970, с.423.
34. Нарзуллаев Х. – Продуктивность черных каракульских овец плоского смушкового типа разного происхождения. Автореф.канд.дис. Ташкент, 1990, с.12-13.
35. Омбаев М.А.– Продуктивность каракульских овец при селекции на естественное многоплодие в зависимости от их происхождения. Алма-Ата. 2008.
36. Омаров О. Н. А. Создание высокопродуктивного стада черных каракульских овец в условиях Прибайкалья. В кн.: Проблемы селекции и технологии в каракулеводстве. Кайнар, 2002 с. 33-43.
37. Раимов Д. – Продуктивность каракульских овец асканийского многоплодного породного типа в условиях полынно-эфемеровой пустыни Узбекистана. Автореф.кан.дисс. Алма-Ата, 1990, с.22.
38. Салиев В.Х. – Характеристика черных каракульских ягнят различных смушковых типов. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журналі. №5-6, 1994, 34-бет.
39. Турганбаев Р. Наследование расцветок у овец сур Кизил кумского заводского типа. Ташкент, 2010. 19 стр.
40. Sattorov S.B., YUsupov S.YU., Bozorov S.R. Har xil zavod tipidagi qorakul qo'chqorlar avlodlarining jun mahsuldorligi. «O'zbekiston qishloq xo'jaligi» jurnali. №5-6, 1998, 54-bet.
41. Саттаров С.Б., Базаров С.Р., Юсупов С.Ю. – Улучшение качества каракуля. Ж.: «Сельское хозяйство Узбекистана», №3, 1998, с.8-9. .
42. Саттаров С.Б. – Эффективность использования заводских баранов-производителей в производстве каракуля серебристого сура. Канд.дисс., 1998, с.144.
43. Сарсенбаев– Племенная работа при разнородном разведении серых овец. В кн.: «Разведение и содержание каракульских овец». Алма Ата 2005, Кайнар с.63.

44. Тастанбеков К., Укбаев Х.И.- Производство каракуля сур казахского типа в новых условиях разведения. Межд . научно-производ. Конф. Молод, ученых аграриев. Чимкент. 2001, с.55-56
45. Tursunov X. Sur rangining avlodlarda namoyon bo'lishi va uning ilmiy asoslari. Zooveterinariya jurnali 2008, №4 35 bet.
46. Умурзаков Т.- Изменчивость признаков и селекция каракульских овец. Автореф. Докт.дисс. Дубровицы. 1989.с.34.
47. Чирвинский Н.П. – Изменение сельскохозяйственных животных под влиянием скудного и обильного
48. Шаптаков С.Э. – Методические основы оценки каракульских баранов-производителей по качеству потомства. Автореф.канд.дисс. с-х наук. Самарканд, 2006 с.4-19.
49. Юдин В.М., Котов М.И. – Еще раз о методике создания стада овец сур Бухарского типа. Ж.: Овцеводство, 1970, №10, с.9-10.
50. Юсупов С.Ю. – Племенные ресурсы каракулеводства. Обзорная информация. Изд. НИИТИИ технико-экономических исследований. Ташкент, 2007г, с.82.
51. Юсупов С.Ю. – Конституциональная дифференциация и продуктивность каракульских овец разных окрасок. Монография. Самарканд, 2010, с.352.
52. Yusupov S.YU. Qorako'l qo'ylarning yangi zavod tiplari. Toshkent. 2007 J. Zooveterinariya № 10
53. Yusupov S.YU. O'zbekiston qorako'lchilikda seleksiya Yutuqlari va tadqiqotlarning ustivor yo'nalishlari. Toshkent J. Zooveterinariya № 1, 2008.
54. Юсупов С.Ю. и др. Селекция цветных каракульских овец. А-А. Кайнар 1981 стр 154.
55. Yusupov S. Qorako'lchilikda Yuqori mahsuldor qo'ylar nasl guruhlaridan unumli foydalanish. O'zbekiston qishloq xo'jaligi, №4, 2002
56. Yusupov S. Cho'l-yaylov chorvachiligida erishilgan ilmiy natijalar. Zooveterinariya jurnali №9, 2010.

57. Юсупов С. Ю. Конституциональная дифференциация и продуктивность каракульских овец. Ташкент, 2005, с. 239.
58. Yusupov S., Gaziev A., Fazilov U. Qorako'l terilariga samarali birlamchi yaylov berish. Zooveterinariya jurnali №2, 2011-05-19 Kukenov U. «Saribel» zavod tipidagi sur qorako'lchilik qo'ylarining o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari. Zooveterinariya jurnali №4, 2009.
59. Юсупов С.Ю., Ахмедов Ф.А., Фазилов У.Т., Газиев А. Селекция и племенные ресурсы в каракульском овцеводстве. Ташкент. «Мухаррир нашриёти» 2010.
60. Yusupov S.YU., Bozorov S.R. Junga ishlov berish texnologiyasi. Samarqand 1998
61. Yusupov S., Fazilov U., Gaziev A. O'zbekiston qorako'lchiligida seleksiya Yutuqlari va tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari. Zooveterinariya jurnali. №1, 2008
62. Юсупов С.Ю., Фазилов У., Газиев А. Фенотипический эффект генов – модификаторов каракульских овец. Ж. Зооветеринария №8. 2009
63. Qorakol qozilarini baholash bo'yicha (bonitirovka) qollanma Toshkent 2000 y.
64. . Internet saytlari
- www.Ziyonet.uz
- www.zootexniya.ru
- www.hifeed.ru
- <http://www.selteh.com> > <http://www.selteh.com>
- www.Googole.ru.
- www.delaem.com.ua
- www.fermadoma.ru
- www.tsiganok.ru

Ilovalar





Каракульская порода (Каракуль) ([узб. qorakoʻl qoʻy](#); букв. черное озеро) — жирнохвостая грубошерстная порода [овец](#) [смушково-молочного](#) направления. Распространена в [Средней Азии](#), главным образом в [Узбекистане](#).



Ягнёнок каракульской породы овец



[Почтовая марка СССР, 1975 год](#)

Основным продуктом данной породы является [каракуль](#) и [каракульча](#). Каракульская порода даёт лучшие в мире смушки^[1].

Каракульская порода овец древняя, считается, что её вывели народы [Средней Азии](#) путём умелого отбора и подбора благоприятных для выращивания овец природных и кормовых условий^[2].

Смушковое овцеводство существовало в Средней Азии еще за 800 лет до н. э.^[3]

Каракульские овцы хорошо приспособлены к суровым климатическим условиям [полупустынь](#) и [пустынь](#). Бараны этой породы в основном [рогатые](#), а матки [комолые](#). Живой вес маток 45-50 кг, баранов от 55 до 85-90 кг у лучших представителей породы. Ягнята каракульской породы делятся на чёрных, серых, сур и комбар, основную массу поголовья, до 85 % составляют чёрные овцы, однако с возрастом овцы седеют. [Настриг](#) шерсти с головы

составляет 2,2-3,8 кг. Мясо и сало каракульской овцы имеет хороший вкус^[2]. У большинства представителей породы голова полугорбоносая, хвост имеет большое отложение жира, длинный (спускается ниже [скакательного сустава](#))^[4], тело глубокое. Шерсть полученная с взрослых овец используется для выделки ковров и для изготовления грубой шерстяной ткани^[5].

Различают овец крепкого, грубого и нежного [конституционального](#) типа^[6].

Для получения [молока](#) используются отлученные от ягнят матки (вследствие убоя для получения каракуля), для получения [мяса](#) — выбракованные матки и баранчики, имеющие низкое качество каракуля, убой баранчиков производится после их дорастивания до 10-12 кг^[4].

При разведении овец этой породы на обильных и сочных [пастбищах](#) качество каракуля ухудшается^[7].

Каракульские овцы [разводятся](#) в [Иране](#), [Афганистане](#), [Намибии](#), [ЮАР](#). На территории СССР выращивались в республиках Средней Азии, в некоторых районах [Молдавской](#) и [Украинской](#) республик ([Херсонская](#), [Одесская](#), [Полтавская](#), [Николаевская](#) области^[8]), [Волгоградской](#), [Астраханской](#), [Оренбургской](#) областях, [Краснодарском крае](#), [Калмыкии](#)^[2]. В настоящее время в 50-ти странах мира разводится каракульская порода, общая численность поголовья достигает 31 млн голов^[4]. Разведение каракульской породы в России продолжено в Астраханской области^[9] и в Калмыкии.

В [1950-е](#) годы и, очевидно, позднее существовали государственные племенные рассадники союзного и республиканского значения, племенные совхозы. В [Самарканде](#) работал [НИИ каракулеводства](#)^[2].

В [Узбекистане](#) разведением каракульской породы занимается компания «Узбек каракули»^[10].

